جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil 31-may
№ 23(23)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

OYDINLAR

“BU EL MENGA OG‘O, SINGIL, YOR-U SIRDOSH...”



O‘z yo‘nalishini topgan har bir ijodkorning xos muxlislari bo‘ladi. Ularning ixlosi ijodkor yaratgan asarlarning yashovchanligini va ikkinchi umri bardavomligini belgilab beradi. Shu kunlarda tavalludining 80 yilligi nishonlanayotgan el suygan shoira, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Tursunoy Sodiqovaning ixlosmandlari naqadar ko‘pligi barcha yodnoma tadbirlarida sezilib turdiki, bu xalqchil adibimizning umrzoqligi dalolatidir.

(4-sahifada o‘qing)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
QARORI

JADIDLAR MEROSI DAVLAT MUZEYINI TASHKIL ETISH TO‘G‘RISIDA

Ma’rifatparvar jadidlarning Vatanimiz va jahon tarixidagi muhim o‘rni va ahamiyatini, milliy istiqlolimizning ma’naviy asoslarini yaratishdagi fidoyiliklarini, ibratli hayoti va faoliyatini, boy ilmiy-ijodiy merosini chuqur o‘rganish va faol targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni yanada kengaytirish, shuningdek, 2023-yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish maqsadida:

1. Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma), Madaniy meros agentligi va Buxoro viloyati hokimligining Buxoro shahridagi tarixiy maskan – Xo‘ja Gulrez ko‘chasi 13-uy manzilida joylashgan Hovli Poyon majmuasida **Jadidlar merosi davlat muzeyi**ni (keyingi o‘rinlarda – Muzey) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Quyidagilar Muzey faoliyatining asosiy vazifalari etib belgilansin:

jadidlik harakatiga oid mamlakatimiz va xorijdagi turli manbalar va tarixiy hujjatlarni aniqlash, to‘plash, saqlash, o‘rganish, tiklash, nusxalash, e’lon qilish, ular asosida Muzey fondini boyitib borish va ekspozitsiyalarni yaratish, shuningdek, madaniy-ma’rifiy va ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish;

ma’rifatparvar jadidlarning Vatanimiz va jahon tarixidagi muhim o‘rni va ahamiyatini, milliy istiqlolimizning ma’naviy asoslarini yaratishdagi hissasi va fidoyiliklarini haqqoniy yoritish, aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish;

muzey ekspozitsiyalarini yaratishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash.

3. Belgilansinki:

Muzey Jamg‘arma tizimiga kiradi hamda Muzey faoliyati uning binosida qurilish-montaj ishlari yakunlanganidan so‘ng boshlanadi;

Muzey binosini mukammal ta’mirlash, jihozlash va hududini obodonlashtirish, Muzey ekspozitsiyasini yaratish bilan bog‘liq xarajatlar ilovaga muvofiq ajratiladigan manbalar hisobidan qoplanadi;

Muzeyni saqlash xarajatlari – Buxoro viloyati mahalliy byudjeti mablag‘lari, Muzeyning o‘z daromadlari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanadi;

Muzeyga shtat birliklarini ajratish hamda xodimlarga ish haqi to‘lash Madaniy meros agentligi tizimidagi muzeylar uchun belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Jamg‘arma:

a) Madaniy meros agentligi va Adliya vazirligi bilan birgalikda Muzey ustavini tasdiqlash, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va malakali mutaxassislar bilan to‘ldirish hamda Muzey faoliyatiga ko‘maklashish yuzasidan tegishli choralar ko‘rsin;

b) Fanlar akademiyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, “O‘zarxiv” agentligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Madaniy meros agentligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi bilan birgalikda:

Muzeyni jadidlik harakatiga oid muzey ashyolari va kolleksiyalari bilan to‘ldirib borishni tashkil etsin;

ushbu maqsadda jadidlik harakatiga oid noyob kitob, qo‘lyozma, arxiv hujjatlari va boshqa materiallarni aniqlash bo‘yicha chuqur fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilishini yo‘lga qo‘ysin, shuningdek, aniqlangan materiallarni ta’mirlash va raqamlashtirish choralarini ko‘rsin;

v) bir oy muddatda Muzey faoliyatini samarali tashkil etish, shuningdek, Muzey binosini ta’mirlash, jihozlash va hududini obodonlashtirish, Muzey ekspozitsiyasini yaratish bilan bog‘liq ishlarni jadallashtirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga tegishli qaror loyihasini belgilangan tartibda kiritsin.

5. Madaniy meros agentligi **“Milliy merosga mening hissam”** umumxalq aksiyasi doirasida aholidan jadidlik harakatiga oid tarixiy materiallar, ashyolar, noyob suratlarning Muzey uchun xarid qilib borilishini ta’minlasin.

6. Tashqi ishlar vazirligi Muzeyga xorijiy davlatlardagi turli arxiv, muzey, kutubxona va boshqa ilmiy-ma’rifiy muassasalar hamda tegishli mutaxassislar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashsin.

7. Muzeyni tashkil etish uchun belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha import qilinadigan muzey ashyolari va kolleksiyalari, kitob va qo‘lyozmalar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, jihozlar, ehtiyot qismlar, metall konstruksiyalar, mebel va inventarlar 2025-yil 1-yanvarga qadar bojxona bojidan ozod etilsin.

8. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Muzey faoliyatini keng yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi raisi G.O.Umerova hamda Buxoro viloyati hokimi B.K.Zaripov belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 30-may

BUGUNNING GAPI

MADANIY QADRIYATLAR – TEXNOLOGIK RIVOJLANISHNING ASOSIY DRAYVERI



Akademik
Ibrohim ABDURAHMONOV
bilan suhbat

– Ibrohim Yo‘lchiyevich, sizning ilmiy faoliyatingiz doirasi so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekiston muhitida keng jamoatchilik nazariga tushdi. Buning sababi nimada?

– E’tirof uchun katta rahmat. O‘z faoliyatimga baho berish menga noqulay. Ba’zi so‘zlarim nokamtarlikday tuyulsa, mushtariylarimiz to‘g‘ri tushunishadi degan umiddaman.

Biologiya sohasiga yoshligimdan qiziqqanim, biolog-o‘qituvchi oilasida o‘sib-ulg‘ayganim bois sohadagi eng “qaynoq” yoki zamonaviy yo‘nalishlarni kuzatib, bolalik paytlarimdan dunyodagi nufuzli laboratoriyalarda ishlashni orzu qilardim. Yaxshi bilasiz, o‘sha paytlarda hozirgi urf bo‘lgan atama bilan aytganda, DNK masalasi trendda edi. 1990-yillar oxiriga to‘g‘ri kelgan maktab davrimizda “qo‘shaloq zanjirli” irsiyat asosi bo‘lgan DNK bilan ishlash usuli, ya’ni uni hujayradan ajratib olish, tozalash, bir qismini “qirqib” yana qayta ulash, bir organizmdan ikkinchisiga ko‘chirib o‘tkazishni inson qo‘li bilan amalga oshirish mumkinligi meni hayratlantirgan. Nufuzli fan olimpiadalarida qatnasharkanman, atrofdagilar bilan ko‘proq shu masalada gaplashardik va albatta, gen muhandisligi sohasi mutaxassisi bo‘lish asosiy maqsadim va hayotim mazmuniga aylanib bo‘lgandi. Qo‘shaloq zanjirni kashf etgan AQShlik olim J.Uotsonning “Cold Spring Harbor” (AQSh) laboratoriyasiga borib ishlayman deb maqsad qilardim, tilni o‘rgansam, unga xat yozaman degan fikrim bo‘lardi.

Shu tufayli biologiyaning yuqori cho‘qqiga yetaklaydigan yo‘nalishini tanladim, tinmay intildim, AQShda o‘qidim, nufuzli laboratoriyalarda ishladim va bu orqali barcha uslublarni o‘rgandim. Jamoamiz bilan birga, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning shaxsan rahnamoligi ostida ko‘pchilikka qiziq bo‘lgan ishga, ya’ni bitta g‘o‘za tolasi hujayrasini gen injenerligi yoki “genlar nokauti” (yorug‘likning qizil va uzoq qizil nuri retseptori genini klonlab, faoliyatini susaytirish orqali) usulida uzaytirish, seleksiya jarayonini DNK bo‘laklari bilan tezlatish mumkinligini avval laboratoriyada, keyin real g‘o‘za navlarida dalada ko‘rsatib berdik.

Bu qiziq tajriba va tadqiqot, albatta, ilmiy jamoatchilikning e’tiborini tortdi. Avval ko‘pchilik ishonmadi, biroq keyinroq kichik e’tiroflar bo‘ldi: 2010-yilda Jahon Fanlar akademiyasi (BMT, Italiya)ning nufuzli “TWAS Prize 2010” mukofotini oldim. 2013-yilda e’tirof kengayib, Xalqaro g‘o‘za maslahat kengashi (ICAC, Vashington, AQSh)ning “Yil olimi” mukofoti bilan taqdirlandim. Muhimi, o‘tgan 23 yil davomida yangi DNK texnologiyalarimizni xalqaro laboratoriyalarda kengroq tatbiq qilish boshlandi. Yaqinda, aniqrog‘i, 2023-yil “YUNESKO hayot fanlari mukofoti” (Fransiya)ga loyiq topilganimiz men va jamoamiz uchun katta e’tirof bo‘ldi. Quvonchimiz shundaki, o‘zbek olimlarining ishlanmalari butun insoniyatga foyda keltira boshladi.

Albatta, mehnatlarimiz Yangi O‘zbekiston muhitida keng jamoatchilik nazariga allaqachon tushib ulgurgan edi. 2021-yili Prezidentimiz tomonidan “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan ixtirochi va ratsionalizator” faxriy unvoni bilan taqdirlandim. Ilm-fan va innovatsiya, oliy ta’lim hamda endilikda qishloq xo‘jaligi sohalarini rivojlantirish vakolati va imkoniyati berilganini ham bir olim sifatida o‘zim uchun katta mukofot va imkon deb hisoblayman.

Siz tilga olgan e’tiroflar “oldin birov qilmagan, yangi yo‘nalishdagi tadqiqotlar va nostandart natijalar” samarasidir. Qolaversa, yutuqlarimiz so‘nggi yillarda jamiyatda va iqtisodiy rivojlanishda ilm-fanning o‘rni ortgani, olimning qadri-qimmati ulug‘lanib, ilmiy yutuqlarga katta qiziqish va havas bilan qaralayotgani, har bir oilada farzand kamoli ilm orqali belgilanayotgani natijasida jamoatchilik orasida kengroq tarqaldi deb o‘ylayman.

– Siz O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Genomika va bioinformatika markazini ham boshqargansiz. Hozirgi sharoitda bu Markaz tarkibiga kiruvchi ilmiy sohalarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni qanday?

– Darhaqiqat, yuqoridagi yutuqlarga erishishda, Fanlar akademiyasi Genomika va bioinformatika markazining tashkil qilinishi alohida o‘rin tutadi. Prezidentimizning kelajakni ko‘rib, o‘sha yillarda jamoamizga bildirgan ishonchi va o‘z vaqtida ajratilgan moliyaviy ko‘mak tufayli 2012-yilda Markazga asos solinib, 2017-yilda to‘la shakllandi va ilmiy dargohga aylandi.

Ta’kidlaganimdek, tiriklikning molekulyar darajadagi tadqiqotlari hayot fanlarining turli yo‘nalishlarida – tibbiyot, qishloq xo‘jaligi, ekologiya, atrof-muhit, kriminalistika va diagnostikadan tortib to yashil iqtisodiyotning turli yangi chaqiriqlarigacha yechim taqdim qila oladi.

(Davomi 3-sahifada)

1-IYUN — XALQARO BOLALARNI HIMOYA QILISH KUNI

BOLALAR ADABIYOTI TO‘G‘RISIDA...

BIR OG‘IZ SO‘Z

XX asrning boshlarida barcha adabiy sohalarda yangilanishlar kuzatildi. Jumladan, matbuot nashrlarida badiiy adabiyotning ijtimoiy, ma’naviy hayotdagi o‘rni, xususan, bolalar adabiyotining qadr-qiymati, tarbiyadagi ta’siri to‘g‘risida ham jiddiy maqolalar nashr bo‘ldi. “Maorif va o‘qituvchi” jurnalida bosilgan quyidagi maqolada bir asr oldin ko‘tarib chiqilgan bolalar adabiyoti masalasi bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgan emas. Zero, bolalarning ruhiy-psixologik kayfiyatiga mos asarlar yozish, bolaning tushunchalari, yoshini inobatga olish hamma zamonlar uchun ham muhim. Maqola muallifi “bolalarg‘a asar yozadirg‘onlar avvalo haqiqiy bolaliq” davrini boshidan o‘tkazgan va o‘sha “davrdan qolg‘on jonli sezgilarini tinglamakka majburlar”, degan o‘rinli fikrni o‘rtaga tashlaydi. Adibning badiiy g‘oyasi – “tub o‘yi” qalin metaforalarga o‘ralgan asarlar taqdim etish noo‘rin. Maqola muallifi shu sababdan “7-8 yoshdag‘i bolalarg‘a Fitrat, Cho‘lpon asarlarini bera olmag‘onimiz kabi, buni tahlil etib tub o‘yning nimadan iborat ekanini ham anglata olmaymiz”, deb kuyinib yozadi. Bolalar uchun bola bo‘lib, bolani bilib, ko‘nglini anglab yozish lozim. Shundagina yozilgan asar bola qalbiga ta’sir qiladi; xulqini, adabini, ma’naviy-ruhiy tarbiyasini o‘nglashga yordam beradi. Bolalar adabiyotining bunday ko‘magi bugun har qachongidan ko‘ra muhimroqdir.

K.BAHODIR



Boshqa madaniy millatlarning bolalariday, bizning ham bolalarimiz ma’naviy bir oziqqa muhtojdirlarkim, bu ma’naviy oziq bolalarni turli tomondan tarbiya etaturg‘on bolalar adabiyotidan iboratdir.

Bolalar adabiyotiga boshqa madaniy o‘lkalarda jiddiy ahamiyat berib, kutubxonalar o‘ziga yetarlik asarlar vujudga keltirilgan bo‘lsa-da, taassufki, bizda hali bir dona ham bo‘lsa, bolalar adabiyotidan sanalaturg‘on asarlar vujudga keltirilmagandir. Bu esa bizning bolalarni tarbiya etishda qanday orqada ekanimizni ko‘rsatish uchun ham katta bir dalildir.

Bizda bo‘lg‘on mana shul kamchilikni yo‘qotmoq uchun ishlash har bir tarbiyachining va bolalarni tushungan kishilarning vazifasidir. Shuning uchun men bolalar adabiyotining ahamiyatini va uni tug‘dirish xususida o‘z fikrimni so‘ylab o‘tmakchi bo‘laman.

Bolalar adabiyoti demak, yosh ruhlar va kichik kishilar uchun yozilg‘on asarlarning to‘plami demakdir. Tabiiy bu adabiyotning o‘ziga yarasha bir qiymati bordirkim, u-da yosh ruhlarda maroq, sevinch va har bir narsaga qarshi ularda havas tug‘dirmoqdir.

Bu yo‘l bilan bolalarda birinchidan, boshlang‘ich bir tekshirish uchun yo‘l ochmoq bo‘lsa, ikkinchi tomondan ularni epchil, kular yuzlik, irodalik, qiziq qonli bir jamiyat a’zosi qilib yetishtirmakdir.

Bundan boshqa bolalar adabiyoti fikr, hofiza, iroda, diqqat, zavq, axloq kabi ruhoniy muassasalarni tarbiyalash; bular ustidagi ta’siri va bu ta’sirning mohiyati qimmatli bir quroli bo‘la oladir.

Tabiiy buning, so‘ylagan qiymatimizga ega va shul natijalarni bera olishi uchun diqqat qilinadirg‘on nuqtalar bor: eng nozik, eng qiyin nuqtalaridan biri: bolalarning tushunishlariga, ko‘rishlariga, yoshlarig‘a qarab mavzu topmoq, bu mavzuni bolalarcha sezmak, tushunmoq va bolalar tili bilan anglata olmoqdir. Tabiiy har yoshdag‘i bolalarning ruhoniy muassasalari turli bo‘lg‘oniday, ko‘rishlari, tushunishlarida ham oz-ko‘b ayriliq bo‘ladir. Yuqoridag‘i shart mana shuni nazarga olinib qo‘yilg‘ondir. Buning uchun bolalarg‘a asar yozadirg‘onlar avvalo haqiqiy bolaliq davrini o‘tqizib, u davrdan qolg‘on jonli sezgilarini tinglamakka majburlar. Ikkinchidan, bolalar ruhiyati bilan yaqindan tanish, ya’ni tarbiyachi bo‘lish shartdir.

So‘ngra olinadirg‘on mavzu samimiy va axloq bilan bog‘lanishi kerak. Bunday mavzu esa, bolalarning ruhoniy kuchlari ustida jiddiy ta’sirlar qoldiradirg‘on va bu kuchlarning yuqorilanishig‘a sabab bo‘lg‘on ertak, hikoya, masal, topishmoq kabilardir.

(Davomi 7-sahifada)

ABADIYAT ORALAB

ODAMLARNING MEHR QUYOSHI

“Yashil qirlar” oromgohidan reportaj

Biz, adabiyot muhiblari Bo‘stonliq o‘ngirlari oralab borar ekanmiz, ulug‘vor tog‘lar xuddi quchoq ochib kutib olayotganday, go‘yo salomimizga “tog‘lar bag‘ridan gumburlagan sado” kelayotgandek tuyilardi. Bu sado mangu uyg‘oq qoyalarning taskinbaxsh nidosidir. Tog‘ havosi ruhiyatni poklab, vujudni tetik tutadi. Xuddi shunday, tog‘ qadar sarbaland ustozlar dahosi ham jamiyat ruhoniyatini tozalab, “boshda do‘ppi” bilan mag‘rur “g‘oz yurish”ga ma’naviy huquqimiz borligini yodga soladi.

Tog‘lar bag‘ridagi so‘lim oromgohda O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov xotirasiga bag‘ishlangan ijodiy festival bo‘lib o‘tganidan xabaringiz bo‘lsa kerak. Ilk bor o‘tkazilgan mazkur adabiyot bayrami “Uzreport TV”, “FTV” telekanallari tashabbusi bilan, “Turon bank” va Toshkent viloyati hokimligi hamkorligida tashkil etildi. Tadbirda Erkin Vohidovning oila a’zolari, taniqli shoir va yozuvchilar, jamoatchilik vakillari, ijod maktablari o‘quvchilari va ko‘plab she’riyat muxlislari qatnashdi.


Prezidentimizning festival ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida ushbu tadbirning mazmun-mohiyati, Erkin Vohidov she’riyatining, ayniqsa, bugungi shiddatli zamonda xalqimiz hayotida naqadar ahamiyatli ekani o‘zining yaxlit ifodasini topdi. Unda, jumladan, shunday deyiladi: “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini har tomonlama o‘rganish va keng targ‘ib qilish, uni bugun yuz berayotgan murakkab jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur xulosalar chiqarish ma’naviy hayotimizni yuksaltirishda, hech shubhasiz, katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, hozirgi notinch va tahlikali zamonda milliy o‘zligimizni anglash, azaliy ezgu qadriyatlarimizni saqlash va boyitish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday o‘ta muhim vazifalarni amalga oshirishda xalqimizning Erkin Vohidov kabi buyuk va ardoqli farzandlarining qutlug‘ va o‘lmas merosi, albatta, beqiyos o‘rin tutadi”.



Ko‘tarinki kayfiyatda boshlangan tadbirning ochilish qismida dastlab Erkin Vohidovning o‘zi o‘qigan “Inson o‘zing” qasidasiga ishlangan videolavha namoyish qilindi. So‘ng Turkiya Prezidenti Rajab Toyyib Erdo‘g‘on O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi chiqishida o‘z nutqini Erkin Vohidovning “O‘zbegim” qasidasi bilan boshlagani esga olinib, o‘sha jarayon videolavhasi ishtirokchilar e’tiboriga havola qilindi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti mudiri, shoir Nodir Jonuzoq o‘z nutqida mamlakatimizda adabiyot va san’atga, maorif va til masalalariga berilayotgan e’tibor, amalga oshirilayotgan tizimli ishlar xususida to‘xtaldi. Erkin Vohidovning tom ma’nodagi serqirra ijodkorligi, sobiq tuzum davrida adabiyotimizning, san’atimizning, tilimizning ravnaqi yo‘lida ko‘rsatgan jasorati, shoirning insoniylik xususiyatlari haqida so‘z yuritdi. “Erkin Vohidovning har bir she’rida, u xoh ijtimoiy bo‘lsin, xoh lirik bo‘lsin, mana shu xalqning yuragini, ruhiyatini, mardonavorligini, tantiligini, nafosatini ko‘rganday bo‘lamiz. Hammamiz Erkin Vohidovni birday yaxshi ko‘ramiz. Erkin Vohidovga ehtiromimizning darajasi bir xil. Nima uchun? Chunki Erkin Vohidov millatning o‘lmas ruhining eng yorug‘, eng porloq bir qismiga aylangan”, dedi u.

O‘zbekiston Qahramoni, taniqli adabiyotshunos, tarjimon Ibrohim G‘afurov davlatimiz rahbarining Erkin Vohidov timsolida adabiyotimizga va adiblarimizga ko‘rsatayotgan ehtiromi to‘g‘risida alohida to‘xtaldi. “Bu bejiz emas, do‘stlar, Prezidentimiz ma’rifat bilan she’riyatni, ma’naviyat bilan adabiyotni egiz ko‘radilar. Tom ma’nodagi adabiyot millatning o‘zligini saqlab qolishi, birlashishi va yuksalishi uchun poydevor bo‘ladi. Yoshlarimiz ana shu poydevorda turib, shoirimiz lutf etganidek, “koinot toqiga narvon” qo‘ya olish imkoniga erishadi, degan ishonch bor bu tabrik-murojaat zamirida. Endi nima uchun aynan Erkin Vohidov shaxsiyatiga bu qadar e’tibor qaratilyapti, degan savolga baholi qudrat javob qidirib ko‘ramiz. Erkin Vohidov adabiyot maydoniga “Men jilg‘aman” degan so‘zlar bilan kirib keldi, “Daryo bo‘lib to‘ldi”, “Ona yurtim, Senga o‘g‘lon bo‘lgim keladi”, degan pokiza niyati ushalib, bugun xalqimizning chin farzandi o‘laroq qalblarimizdan mustahkam o‘rin oldi. Shoirning o‘tli satrlari, dostonlari-yu tarjimalaridagi yoniq fikrlar naqadar iste’dod bilan qog‘ozga tushgan, hazrat Navoiyga ixlosi sabab g‘azallar bitgan, “Muhokamat ul-lug‘atayn”dan ilhomlanib “So‘z latofati” kitobida mahorat bilan so‘z marjonlari tizgani alohida e’tirofga loyiq. Erkin Vohidov safdoshlari bilan o‘zbek nomi dunyoga chiqishi yo‘lida fidokor shoir sifatida xalqimizning xotirasida qoldi. Endi adabiyot osmonini Erkin Vohidov deb atalgan tirik sayyorasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shoir yaratgan adabiy maktab Yangi O‘zbekiston yoshlari uchun ma’rifat va ma’naviyat dorilfununi bo‘lib xizmat qilmoqda. Siz va biz bir millat bo‘lib Erkin Vohidov fenomeni atrofida ko‘ngillilar sifatida yana birlashayotganimiz – bu o‘zligimizni anglayotganimizning yaqqol belgisidir. Muhtaram Prezidentimizning yosh ijodkorlar maktablari yaratib, buyuklarimizning izdoshlari yetishib chiqishini kutayotgani biz ijod ahlini ham ulug‘ mas’uliyat va javobgarlik hissini uyg‘otishi kerak. Ta’kidlash lozim, adabiyot, san’at va madaniyatga bu qadar oliy e’tibor, yoshlarga bu kabi keng imkoniyat boshqa hech qaysi mamlakatda yo‘q. Shuni unutmasligimiz va qadrlashimiz kerak”.



Ustoz Ibrohim G‘afurov shoirimizning “Yurtdoshim, bog‘ingga bir nihol qada” misrasiga alohida urg‘u berarkan, tashkilotchilar ushbu so‘lim go‘shada Erkin Vohidov nomidagi bog‘ tashkil etish taklifini bildirishdi. Bu xayrli ishning yurtimiz bo‘ylab shiddat bilan olib borilayotgan “Yashil makon” loyihasiga hamohang ekani ta’kidlandi. Erkin Vohidovdek so‘z zargari bitgan har bir misra zamiridagi chaqmoq fikrlardan ana shunday xulosa chiqarib, jamiyat hayotiga tatbiq qilinsa, juda ko‘p ezguliklarga, mamlakat umumtaraqqiysiga sabab bo‘lishi, shubhasiz.

Shuningdek, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Ahmadjon Meliboyev ham Erkin Vohidov haqida xotiralari bilan o‘rtoqlashib, u kishining ibratli hayot yo‘li, serqirra ijodi haqida fikr bildirdi. “Erkin aka siymosida olimlik, shoirlik, rahbarlik, insoniylik, kamtarlik degan beshta fazilat jam bo‘lgan inson edi. Bunday jamuljamlik kamdan kam odamlarga nasib qiladi”, deya e’tirof etdi ustoz jurnalist.

Tadbirda O‘zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A’zam ham o‘zining yorqin xotiralari, kuzatuvlari haqida anjuman ahliga hikoya qildi. Erkin Vohidov bilan uzoq vaqt birga ishlagan adib uning xarakteridagi chin insonparvarlik va kamtarlik, mardlik va mag‘rurlik xislatlari haqida gapirdi. Erkin Vohidovdagi so‘zga hurmat, millat, yurt uchun kuyunchaklik fazilatlarini hayotiy misollar bilan tasvirlarkan, uning ijodida yaxshilik mavzusi yetakchi motiv ekanini ta’kidladi. “Erkin aka kitoblariga, hujjatlarga “E voh” deb imzo chekar edi. Bugun o‘ylasam, bu imzoda ko‘p narsa mujassam bo‘lgan ekan, unda shoirning shukronasiyam, pushaymonligiyam, armoniyam bor. Shu “E voh”da u kishining dunyodan o‘tganidan keyin avlodlar mana shunday yig‘ilib, millatga qilgan beminnat xizmatini minnatdorlik bilan eslashiga ishonch ham bor edi. “E, voh!” deya so‘zini yakunladi muhtaram adibimiz.

Erkin Vohidovning farzandi Xurshid Vohidov o‘z xursandchiligini, jumladan, shunday so‘zlar bilan izhor qildi: “Mamlakatimiz rahbari Shavkat Miromonovichga oilamiz nomidan o‘z minnatdorchiligimni bildiraman. Boshimiz osmonga yetdi. Ma’naviyatga, adabiyotga katta e’tibor berib kelmoqdalar. Doim otamizga hurmatlarini bildirib, betob bo‘lgan davrlaridayam muntazam yo‘qlab, har qanaqa dori-darmondan ham afzalroq mehr ko‘rsatganlari otamizning sog‘liqlariga kuchli ta’sir qilardi”. U Erkin Vohidovning shu misralari bilan so‘zini yakunladi:

Inson bilan tirikdir inson,
Muhabbatda hayotning boshi.
Odamzodga baxsh etadi jon
Odamlarning mehr quyoshi.



Atoqli shoir-yozuvchilarning zalvorli fikrlari bilan boshlangan tadbirga boshlovchi-jurnalistlarning go‘zal tashbehlari, yuksak e’tiroflar, sahnaviy badihago‘ylik yanada fayz bag‘ishladi. O‘zbek elining zukko va shijoatli adibi, chinakam ma’noda xalqimiz va madaniyatimiz timsoli bo‘lgan Erkin Vohidov asarlari orqali yoshlarning ona tilimizga mehrini oshirish, vatanparvarlik tuyg‘ularini kamol toptirish maqsadida ilk bor tashkil etilgan adabiy festivalning asosiy qismi mana shunday ijod muhitida, ilhom og‘ushida, ko‘tarinki kayfiyatda boshlandi.

Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi o‘quvchilari ishtirokida bo‘lib o‘tgan bahri bayt mushoirasi ham ishtirokchilarni mamnun etdi. Mushoira ishtirokchilari Erkin Vohidov g‘azallari, muxammaslari, lirik va hajviy she’rlariga murojaat qilishdi. Uzoq davom etgan bellashuvda ijod maktabining a’lochi o‘quvchisi Shahlo Safarova g‘olib deb topildi.

Erkin Vohidov nafaqat shoir, olim, publitsist, tarjimon, balki dramaturg sifatida teatr san’ati ravnaqiga ham o‘zining munosib hissasini qo‘shgan. Uning “Oltin devor”, “Istanbul fojiasi”, “Ikkinchi tumor” kabi pyesalaridan tashqari “Ruhlar isyoni”, “Nido” kabi dostonlari, “Donishqishloq hangomalari” turkumidagi hajviy she’rlari asosida ham yurtimiz teatrlarida g‘oyaviy-badiiy yetuk spektakllar sahnalashtirilgan. Festivalda “Oltin devor”, “Ruhlar isyoni”, “Matmusa” kabi sahna asarlaridan parchalar namoyish etilib, Erkin Vohidov kuylagan millat dardi, insoniylik tuyg‘ulari avj pardalarda yangradi. Ijobiy va salbiy, hajviy va tragik obrazlarda namoyon bo‘lgan Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi o‘quvchilari olqishga sazovor bo‘lishdi.

Shundan so‘ng shoirning do‘stlari ishtirokida “Shaxmat chellenji” o‘tkazildi. Musobaqa davomida an’anaviy shaxmat doskasida va yirik shaxmat maydonida o‘yinchilar dona surishdi. Qizg‘in tus olgan bellashuvlarda ustoz Ibrohim G‘afurov mutlaq g‘olib bo‘ldi. Serzavq o‘tgan o‘yinlar chog‘ida Erkin Vohidovning shaxmat usullari, o‘yin taktikasi, uning bu aql va tafakkur sportiga bo‘lgan munosabati, shaxmat bilan bog‘liq xotiralar yodga olindi, ustozlar tomonidan yoshlarga so‘zlab berildi.

“Yashil qirlar” oromgohining kiraverish qismida bog‘ uchun hozirlangan hududga ko‘chatlar o‘tqazildi. Festival ishtirokchilari bu xayrli ishni zavq-u shavq, mehr va ixlos bilan bajarishdi. Bir so‘z bilan aytganda, yurtdoshlar Erkin Vohidov bog‘iga bir niholdan qadashdi va bu nihol otini “ehtirom” deb atashdi.

Festivalning badiiy qismida shoir she’rlari asosida yaratilgan qo‘shiqlar yangradi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Rustam G‘oyipov, xonandalar Shuhrat Yo‘ldoshev, Davronbek Abdusalomov va Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi o‘quvchilari tomonidan kuylangan diltortar taronalar ohangi bilan qalblarni elitgan bo‘lsa, so‘zlari bilan yuraklarni eritdi:

Qulluq qil demasman.
Yurt tuprog‘in o‘p,
Unga qullar emas, fidolar kerak.
Uning sen-u mendek shoirlari ko‘p,
Buyuk elga endi daholar kerak.

Qaddingni baland tut,
Bo‘lma serta’zim,
Cho‘qqi bo‘lolmasang,
mahkam qoya bo‘l,
Pillapoya bo‘ldim senga, azizim,
Sen ham gal kelganda pillapoya bo‘l.

Shavkat DO‘STMUHAMMAD

MAKTUB



ADABIYOTIMIZNING CHIN DO‘STI

Yaqinda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universitetida “Global integratsiya sharoitida turkiy tillar taraqqiyoti: muammo va vazifalar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Mazkur anjumanda Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va boshqa turkiy tilli davlatlarning nufuzli oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarida qon-qardosh xalqlarning tili, tarixi, madaniyati va adabiyotini tadqiq qilib kelayotgan taniqli olimlar qatnashdi. Avvalo, turkiy tillarning ertangi kuniga bag‘ishlangan bunday nufuzli yig‘inning yurtimizda o‘tkazilishi mamlakatimizda milliy adabiyotimiz, ona tilimiz rivojiga qaratilayotgan yuksak e’tibor natijasidir.

Konferensiyada qardosh tillarning istiqboli masalalari atroflicha muhokama qilinib, qator taklif va tashabbuslar ilgari surildi. Ayniqsa, unda O‘zbekiston Prezidentining Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi tashabbusiga asosan “Turkiy adabiyot durdonalari” 100 jildlik majmuasining o‘zbek tilida nashr qilinishi qardosh xalqlar madaniy hayotida ulkan voqea bo‘lgani e’tirof etilib, ushbu to‘plamni ularning tillarida ham nashr etishning ahamiyati beqiyos ekani alohida ta’kidlandi.

Millat faxri bo‘lgan ulug‘ bobomiz nomi bilan ataladigan universitetda tashkil etilgan xalqaro konferensiyada o‘zbek adabiyotining Turkiyadagi tolmas tag‘ribotchisi, Anqara shahridagi Hoji Bayram Vali universiteti professori Vali Savash Yelok ham ishtirok etdi. Bu zahmatkash inson ko‘p yillardan buyon adabiyotimizni xalqaro miqyosda targ‘ib qilib kelayotgani bois mamlakatimiz ilmiy-adabiy jamoatchiligi orasida alohida hurmat qozongan. Xususan, u Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, Shukur Xolmirzayev, Qamchibek Kenja, Tog‘ay Murod, Xayriddin Sulton, Nazar Eshonqul, Luqmon Bo‘rixon kabi adiblarimizning asarlarini turk tiliga tarjima qilish bilan birga, muntazam o‘zbek adabiyotshunosligiga oid adabiy-tahliliy maqolalar ham e’lon qilib kelmoqda.

Vali Savash Yelok yurtimizda o‘tkazilayotgan turli anjumanlarda muntazam ishtirok etib, o‘zbek-turk adabiy aloqalarini yanada rivojlantirishga munosib hissa qo‘shmoqda. Bu borada o‘zbek adabiyotshunoslari bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda. Shu bois xalqaro anjuman doirasida Vali Savash Yelokning O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga faxriy a’zo sifatida qabul qilinishini anjuman ishtirokchilari olqishlar bilan kutib oldi.

Quvonarlisi, bugun xorijiy mamlakatlarda ham o‘zbek adabiyotining targ‘ibotchilari safi kun sayin kengayib bormoqda. Albatta, ular orasida mohir tarjimonlar, mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning zukko bilimdonlari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Aynan ana shunday insonlarning xizmatlari bois ham so‘nggi yillarda o‘zbek adabiyotiga xalqaro miqyosda qiziqish tobora ortib bormoqda. O‘tgan yili Turkiyaning Bursa shahrida o‘tkazilgan xalqaro adabiy anjuman doirasida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning “Bilga xoqon” romani “Tilda, fikrda, ishda birlik: turk dunyosi adabiyot mukofoti”ga sazovor bo‘lgani, Istanbul shahrida tashkil etilgan XIV “Turkiy xalqlar she’riyat festivali”da taniqli shoirimiz Eshqobil Shukur Baxtiyor Vahobzoda nomidagi xalqaro adabiy mukofot bilan taqdirlangani shundan dalolat beradi.

Kuni kecha Vali Savash Yelokdan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga maktub keldi. Unda jonkuyar olim yurtimizga safari chog‘ida o‘ziga ko‘rsatilgan ehtirom uchun tashakkur izhor qilish bilan bir qatorda, xalqimizga muhabbati cheksiz, milliy adabiyotimizga mehri beqiyos ekanini bayon etib, o‘z yurtida o‘zbek adabiyotini targ‘ib etish yo‘lidagi ilmiy-ijodiy ishlarini yanada kengaytirish maqsadida ekanini ta’kidlagan.

O‘ylaymizki, boshqa qardosh yurtlarda ham o‘zbek adabiyotining mana shunday chin do‘stlari safi tobora kengayib, adabiy do‘stligimiz xalqlarimizning abadiy do‘stligiga xizmat qiladi.

Nurilla CHORIYEV



MADANIY QADRIYATLAR – TEXNOLOGIK RIVOJLANISHNING ASOSIY DRAYVERI

Boshlanishi 1-sahifada.

Shu bois Markaz faoliyati, ya’ni DNKni o‘rganish va uning asosida inson manfaatiga yo‘naltirilgan tezkor iqtisodiy yechimlar berish tajribasi va ko‘nikmalari, asosiysi, tajribali mutaxassislar jamoasi Yangi O‘zbekiston ijtimoiy hayotida juda muhim o‘rin egallaydi. Birgina misol, kovid pandemiyasi davridagi tezkor yechimlar, virusni tushunish, tarqalishining monitoringi hamda diagnostikasi, unga qarshi kurashish choralarida markazning o‘rni katta bo‘ldi.

– Innovatsiya degan tushunchalar ilgari oddiy davralar nari tursin, ilmiy doiralarda ham ko‘pda tilga olinavermasdi. Keyingi yillarda bu sohaning shiddat bilan hayotga kirib kelishi davr taqozosimi yoki boshqa sabablar ham bormi?

– Albatta, qaysi soha tarmog‘ini olmaylik, yangi texnologiyalar, ilmiy yutuqlar va innovatsiyalar asosida rivojlanib, takomillashib bormoqda. Innovatsiya – murakkab jarayon, biroq bir so‘z bilan innovatsiya bu – pul deyish mumkin. Ya’ni orttirilgan bilim va tajribani yoki kashf qilingan yangilik va ishlanmani sotib daromadga ega bo‘lish, mablag‘ ishlab topish, turmush tarzini yaxshilash, yengillashtirish, vaqtni tejash, mahsulotni arzonlashtirish, ommalashtirish innovatsiyadir. Innovatsiyalar daromadni oshirishga va olingan mahsulot tannarxini pasaytirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Demak, keyingi yillarda innovatsiya degan tushunchaning hayotimizga shiddat bilan kirib kelishi davr taqozosi va jamiyatda insoniyat intellektining cheksiz imkoniyatiga ishonch ortishi desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotini mustahkamlash yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlarning asl mazmun-mohiyati ham ilm-fan va innovatsiya yordamida mamlakatni rivojlantirishga qaratilgan.

– Davlatimiz rahbarining Innovatsion rivojlanish vazirligini tuzish tashabbusi asosida, siz vazir vazifasiga tayinlandingiz. Keyin oliy ta’lim sohasiga ishga o‘tdingiz. Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil qilinganda uning oldiga qo‘yilgan vazifalar to‘la-to‘kis bajarildimi?

– Yuqorida aytganimdek, bu vakolatning shaxsan menga berilishi davlatimiz Rahbarining yuksak ishonchi, e’tirofi va qolaversa, men uchun katta sinov va ulkan imkoniyat bo‘ldi. Maqsad – kichik tajribani kengaytirish, barcha sohalarga Genomika markazidagi yuqori texnologiyani joriy qilish va yoshlarga shart-sharoit yaratish tajribasidan kelib chiqib, turtki berib yuborish, shuningdek, mamlakat ilm-fani, texnologiyalar va innovatsiyalari rivojlanishi ekotizimini shakllantirish asoslarini yaratish edi.

Hududimizda va yaqin davlatlarda kam uchraydigan Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil qilinishining o‘zi katta innovatsiya edi. Innovatsion rivojlanishni esa turli yo‘nalishlardan turib ta’minlash mumkin – kimdir yuqori texnologiyalar, kosmik tadqiqotlar, IT texnologiyalar, energetika yoki tibbiyot, qishloq xo‘jaligini asos qilib olsa, kimdir innovatsiyalarni, masalan, turizmni rivojlantirish asosida ham olib kirgan. Esimda, vazir sifatida mamlakatning asosiy innovatsion rivojlanish yo‘lini tanlash eng og‘ir masala bo‘lgan. Prezidentimiz belgilayotgan rivojlanish strategiyasidan kelib chiqib, 60 foiz aholimiz yoshlardan iboratligi uchun biz mamlakatda innovatsion taraqqiyotni inson kapitalini rivojlantirish orqali amalga oshirishni belgilaganmiz.

Bu keng qamrovli qadam edi va dastlab huquqiy asoslar hamda intellekt uchun sharoit, rag‘bat ekotizimini shakllantirish asosiy vazifa bo‘lgan. Qolaversa, inson kapitalini rivojlantirish uchun ta’lim alohida e’tibor talab qiladi. Bejiz emas, keyinchalik biroz muddat oliy ta’lim sohasida faoliyat yuritdim.

Maqsadga erishildimi? O‘rinli savol va nazarimda qadam davom etmoqda, natijalar ijobiy tomonga o‘zgarmoqda, desam to‘g‘ri bo‘ladi.

Eng muhimi, bu sohada huquqiy poydevor yaratildi, “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” hamda “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi ikki yirik qonun qabul qilindi. Qisqa va o‘rta muddatli Innovatsion rivojlanish va 2030-yilgacha ilm-fanni rivojlantirish strategiyalari qabul qilinib, ishlar tizimli yo‘lga qo‘yildi. 100 ga yaqin mutlaqo yangi yondashuvli normativ-huquqiy hujjatlar tasdiqlanishi va 30 ga yaqin zamonaviy innovatsion infratuzilmalar yaratilgani sohada yoshlarga imkon berilishi, ilmning qadri oshishi, rag‘batning paydo bo‘lgani ijodkorlik va erkinlik muhitini shakllantirdi.

Ilm-fan sohasiga davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘lar hajmi 3 baravarga oshdi, yosh olimlar soni 6,5 ming nafardan 10,8 ming nafargacha yetdi. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo‘yicha maxsus institutlar tashkil qilindi. Ilmiy natijalar iqtisodiyot tarmoqlariga kira boshladi, ilmiy tadbirkorlik (startaplar) ekotizimi paydo bo‘ldi. Ta’lim qamrovi va sifati oshdi, ilmga intilish – Uchinchi Renessans uchqunlari va “zuvalasi” shakllantirildi.

Birgina dalil, islohotlar tufayli mamlakatimiz Global Innovatsion indeksda yuqorilaganini quvonch bilan tilga olish kerak. O‘zbekistonning Global innovatsion indeksga qaytishi va uning 8 yil avvalgi ko‘rsatkichdan 40 pog‘ona yuqorilagani – Yangi O‘zbekistonda boshlangan islohotlarning dastlabki natijasi va ko‘zlangan katta marraga qarab tashlangan birinchi qadamdir. Buni, albatta, respublikamizda olib borilayotgan shaffoflik va ochiqlik siyosati hamda innovatsion faoliyatdagi ijobiy o‘zgarishlarning natijalari, deya e’tirof etish mumkin. Biroq bu boshlanishi, katta o‘zgarishlar hali oldinda, men bunga aminman.

– O‘tgan yildan boshlab respublikamizdagi eng keng tarmoqli soha – Qishloq xo‘jaligi vazirligiga rahbar etib tayinlandingiz. Qo‘polroq tuyulsa ma’zur tutasiz, ammo sizning sohadan sohaga o‘tib yurishingiz sababi nimada? Ehtimol, barcha sohalarga innovatsion yondashuv zarurligi talabidan kelib chiqilayotgandir?

– Aytib o‘tganimdek, o‘tgan yillarda mamlakatning innovatsion rivojlanish poydevori yaratildi va inson kapitalini rivojlantirish chora-tadbirlari belgilanib, rivojlanish istiqbollari ta’limga integratsiya qilindi. Tom ma’noda “g‘ildirak o‘rnidan jildi” va soha tajribali mutaxassislarga boyidi. To‘g‘ri savol qo‘ydingiz. Hali qilinadigan ish ko‘p bo‘lsada, tushunishimcha, innovatsiya va oliy ta’lim sohalari bilan bir qatorda iqtisodiyotimizning uchdan biri bo‘lgan qishloq xo‘jaligiga e’tiborni kuchaytirish davr taqozosiga aylandi.

Haqiqatan ham, eslab o‘tganim Global innovatsion indeks tahlillariga ko‘ra hozirgi zamonaviy texnologik rivojlanish asrida har qanday sohaning innovatsion rivojlanishini faqat 2 ta yondashuvgina ta’minlab bera oladi. Birinchisi bu – sohada raqamli texnologiyalarni joriy qilish bo‘lsa, ikkinchisi – sohada “chuqur” ilmiy tadqiqotlar (masalan hujayra, DNK yoki genlar darajasida) asosida o‘ta aniqlikdagi yechimlar ishlab chiqishdir.

Iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi va tuproq degradatsiyasi, oziq-ovqat xavfsizligi, sifat kabi jiddiy muammolarni yengib o‘tish, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tizimlariga qiymat qo‘shadigan, uy xo‘jaliklari daromadlarini oshiradigan yangi bozor imkoniyatlaridan foydalanishga ega bo‘lish, fermerlar va tarmoq korxonalari uchun talab qilinadigan yangi bilim, vositalar va texnologiyalarni yaratishga faqatgina ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar orqali erishish mumkin.

Qishloq xo‘jaligidagi innovatsiyalarning zamirida serhosil, iqlimga mos, kasalliklarga chidamli yangi nav, yangi urug‘ hamda zot va nasl yaratishni joriy qilish yotibdi. Bu esa intellekt va ilmiy tadqiqotlar, sohada ziyoli qatlamning rivojlanishi, sohaga nostandart yechimlar taklif qilish bilan chambarchas bog‘liq. Balki, yuqorida tilga olingan sohalarda ishlash davomida orttirgan tajriba va qishloq xo‘jaligidagi ilmiy ko‘nikmalarimni inobatga olib menga vakolat berilgandir. Lekin bu vakolat faqat yanada ko‘proq izlanish va yangi bilimlarga intilishni taqozo qiladi. Oldingi tajriba ham, bilim ham hozirgi iqlim o‘zgarishlari va murakkab geosiyosiy davrda sohani boshqarishda yetarli emasligini yaxshi tushunaman.

– Ijtimoiy hayotda fanning o‘rni yuksak ekanini butun dunyo e’tirof etadi. Hayotda keskin va murakkab vaziyatlarda ham ilm-fan yordamga keladi. Butun dunyoni larzaga solgan koronavirus epidemiyasi keng tarqalgan vaqtlarda o‘zbek xalqi bahamjihatlikda bu ofatdan eson-omon o‘tib olgani katta yutuq bo‘lgani hech kimga sir emas. Bu jarayonda ilm-fan nechog‘li harakatda bo‘lganini, xalqimiz dardiga darmon izlaganini hamma ham bilavermaydi. Shu haqda to‘xtalsangiz.

– Darhaqiqat, koronavirus pandemiyasi har bir davlat uchun o‘z ilmiy jamiyati, olimlari va yuqori texnologik laboratoriyalari bo‘lishi, ba’zan “takrorlanish” deb qaralsa-da, strategik yo‘nalishlarda ilmiy guruhlar doimiy tadqiqotlar olib borishlari zaruriyatini ko‘rsatdi. Esimda, pandemiya boshlanganda hamma kabi biz ham tushkunlikka tushdik, vaksina yetishmovchiligi, mablag‘ bo‘lsa-da, tasdiqlangan vaksinalarni ololmaslik xavfi juda tashvishli edi. Bu borada tez ilmiy qarorlar chiqarib yechim topish uchun jonkuyar olimlarimiz, innovator yoshlarimiz, avval yaratilgan yuqori texnologik laboratoriyalarimizning borligi, hurmatli Prezidentimizning qat’iyatli qarorlari va ko‘maklari dalda bo‘ldi.

Genomika va bioinformatika hamda Ilg‘or texnologiyalar markazlarida jamoamiz bilan O‘zbekistonga kirib kelgan koronavirusning barcha genotiplari genomlarini o‘rganib (aytish kerakki, bir virus 29 ming nukleotid zanjiridan iborat), mutatsiyalanib borishini baholadik va koronavirus genomini o‘qishga muvaffaq bo‘lgan 50 ta mamlakat qatoridan joy oldik. Natijalar nufuzli jurnallarda chop etildi. Koronavirus genomidagi mutatsiyalarga tayanib, o‘sha paytda juda tanqis bo‘lgan virusga PZR (polimerli zanjir reaksiyasi) testlar to‘plamlarini yaratib, hukumatimiz ko‘magida, oyiga 1 mln dona mahalliy ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydik, testlar arzonlashdi. Aholimizning katta qatlamini tahlil qilish imkoniyati yaratildi. PZR testlarining keng yo‘lga qo‘yilishida, har bir nuqtadagi mutaxassislarni tayyorlashda O‘zbekiston genomika maktabi katta uslubiy ahamiyat kasb etdi.

Davlatimiz Rahbarining siyosiy irodalari va tashqi aloqalardagi o‘zaro ishonch diplomatiyasi tufayli xitoylik olimlar bilan mutlaqo yangi avlod gen-muhandisligi asosida rekombinant oqsil vaksinasini yaratib, qisqa muddatlarda 3-faza klinik sinovlarini yakunlashga erishdik. Muhimi, 11 million doza yuqori vaksinani mahalliy korxonalarimizda ishlab chiqishni yo‘lga qo‘ydik. Shu orqali emlanish zarur bo‘lgan 22 milliondan ortiq aholimizning 66 foiziga, ya’ni 14 million kishiga vaksina o‘z vaqtida yetkazib berilib, ko‘plab og‘ir asoratlarning oldi olindi. Bu ilm-fanning kuchi va katta yutug‘i bo‘ldi deb o‘ylayman.

Muhimi, koronavirusning O‘zbekistonda tavsiflangan genomlari asosida olimlarimiz tomonidan kovidga qarshi 6 ta yangi nomzod vaksinalar yaratildi. Shundan pomidor asosida yaratilgan iste’mol qilinadigan “TOMAVAK” va virus oqsili asosidagi “RENOVAK” vaksinalari klinikoldi sinovlaridan o‘tib, ilmiy maqolalar chop etildi.

– Ilm-fan intellektual salohiyatni yuksaltirishi, xalq boyligi ekani bor gap. O‘zbekiston bu sohaga juda katta e’tibor qaratayotganini dunyo e’tirof etmoqda. Xo‘sh, xalqimiz hayotida, respublikamizda kechayotgan islohotlarda ilm-fanning o‘rni qanday bo‘lmoqda? Ilmiy ishlar, ayrimlar o‘ylaganchalik, papkalarda qolib ketmayaptimi, hayotga yangilik olib kiryaptimi, foydasi tegyaptimi? Ko‘pchilikni shu savollar qiziqtiradi.

– Bu o‘rinda davlatimiz Rahbarining ilm-fanga bo‘lgan e’tiborini va ilm namoyandalariga bo‘lgan yuksak ehtiromini tilga olib o‘tish kerak, albatta. Prezidentimiz 2017-yilning 30-dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda: “Bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko‘tarishni talab qilmoqda. Zotan, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin. Mazkur sohani va olimlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlatimizning ustuvor vazifalaridandir”, deb ta’kidlagan edi. Oradan qisqa muddat o‘tib, tizimni isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi.

Endilikda bu soha tubdan o‘zgaradi. Ilm-fanni yaqin va uzoq kelajakda rivojlantirishning asos tamoyillari ishlab chiqiladi, fanga ajratiladigan mablag‘lar esa kamida o‘n baravar oshiriladi.

Hozirda ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirishning 17 ta maqsadli ko‘rsatkichlari aniq belgilangan bo‘lib, ularga muvofiq, 2025-yilga qadar ilm-fanga yo‘naltiriladigan jami mablag‘larning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushini 6 baravarga (1,2 foiz), 2030-yilgacha esa 10 baravarga (2 foiz) oshirish maqsad qilingan. Bu mamlakatimiz uchun juda muhim qadam hisoblanadi.

Shuningdek, 2025-yilga qadar ilm-fanni umumiy moliyalashtirish hajmida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xususiy sektor tomonidan ajratiladigan mablag‘lar ulushini amaldagi 8 foizdan 20 foizga, 2030-yilgacha esa 30 foizga yetkazish, innovatsion ishlanmalar va startap loyihalarni moliyalashtirish maqsadida xorijiy yetakchi investitsiya kompaniyalari bilan hamkorlikda (2021-yilda 2 ta, 2025-yilda 10 ta) venchur fondlarini tashkil qilish amalga oshirilmoqda.

Qolaversa, ilmiy-innovatsion loyihalarni qo‘shimcha moliyalashtirish maqsadida O‘zbekistonda milliy innovatsion tizimni shakllantirish uchun 50 million AQSH dollari miqdoridagi imtiyozli zayom mablag‘lari Jahon banki tomonidan tasdiqlandi va amalga tatbiq qilinmoqda. Bu olimlar uchun dunyo fani darajasidagi chinakam raqobat muhitini yaratdi.

2018–2022-yillarda ilmiy va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishning umumiy qiymati 455 milliard so‘mni, jumladan, ishlab chiqarilgan yangi mahsulot hajmi 367 milliard so‘mni va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 88 milliard so‘mni tashkil etdi. Innovatsion faol tadbirkorlik subyektlari soni 600 tadan 1500 taga, ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirilgan ilmiy ishlanmalar soni 300 taga yetdi. Bu keyingi yillarda Global innovatsion indeks pog‘onalarida yanada yuqoriga ko‘tarilish va albatta, 2030-yilga kelib ilg‘or 50 mamlakat qatorida bo‘lishimiz kafolatidir.

Ilmiy ishlanmalarga qaytadigan bo‘lsak, ularni joriy qilish yoki innovatsiyaga aylantirish borasidagi muvaffaqiyatlar negizida milliy qadriyatlarni, mafkurani, madaniyatni inobatga olish ham yotadi. Aytmoqchimanki, har qanday ilmiy kashfiyot, ishlanma yoki biror chet el texnologiyasini jamiyatga ko‘r-ko‘rona joriy qilib bo‘lmaydi. Bunday urinishlar besamar ketaveradi. Innovatsiyalarni madaniyat va milliy qadriyatlar nuqtayi nazari bilan boyitish va moslashtirish yangi innovatsiyalarning ommalashishida, soddaroq qilib aytganda “bozorgirligi”da muhim o‘rin tutadi. Innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilishda madaniy qadriyatlarga “yumshoq” komponent emas, balki texnologik rivojlanishning asosiy drayveri sifatida qarash lozimligi bugungi rivojlanishimiz va kelajagimizning kafolatidir. Qishloq xo‘jaligi sohasi ham bundan mustasno emas.

– O‘zbek xalqining dehqonchilik madaniyati qadim-qadimdan shakllanib kelgan. Ma’lum davrlarda qishloq xo‘jaligi resurslari g‘orat qilingani, muammolar yerlarni shudgorlashdan tortib urug‘ tanlashgacha, sug‘orishgacha ko‘payib borgani sir emas. Bu muammolarni bartaraf etishda ilm-fan qanday ko‘mak bermoqda?

– Ajdodlarimiz asrlar davomida qishloq xo‘jaligi bilan faol shug‘ullanib kelgani bois bu borada katta tajriba maktabi yaratilgan. Biroq dunyo miqyosida ro‘y berayotgan keskin iqlim o‘zgarishi va kutilmagan tabiat injiqliklari agrar sohada mehnat qilayotgan fermer va dehqonlardan bunday katta tajriba bilan birga ilm-fan yutuqlari va innovatsion yechimlardan ham samarali foydalanishni talab etmoqda. Bundan tashqari, yildan yilga global muammo sifatida e’tirof etilayotgan suv resurslarining yetishmasligi, yerlar degradatsiyasi kabi muammolar agrar sohada faqatgina ilm-fan yutuqlari va soha olimlarining ko‘p yillik izlanishlari natijalariga ko‘ra ish ko‘rishni taqozo qilmoqda.

Darhaqiqat, davlatimiz Rahbari o‘z chiqishlarida qishloq xo‘jaligida unumdorlikni oshirish, tannarxni kamaytirish, suvni tejash zarurligini ta’kidlaydilar. Afsuski, yurtimizda bir gektar maydondan olinadigan o‘rtacha hosil ilg‘or mamlakatlardagiga qaraganda ancha kam. Lekin o‘g‘it ham, yoqilg‘i ham, suv ham 2 karra ko‘p ishlatiladi. Shu bois xorijdan serunum chigit va urug‘lar olib kelib, dehqonlarni yangi agrotexnologiyalarga o‘qitib, hosildorlikni paxtada 50 sentner, g‘allada 100 sentnerga yetkazish ustida ish olib borilmoqda.

Shuningdek, respublikamizning jami sug‘oriladigan ekin maydoni 4,3 million gektarni tashkil etadi. Ularning salkam yarmi esa turli darajada sho‘rlangan. Buni qarangki, iste’molchilar soni ko‘paymoqda, lekin mahsulot yetishtirish imkoniyatlarimiz tobora kamayib bormoqda. Shuning uchun bu kabi muammolarga ijobiy yechim topish uchun birinchi navbatda, ilm-fanga tayanish, suyanish lozim. Ya’ni sohada zamonaviy ilmiy ishlanmalarni, innovatsion g‘oyalarni qo‘llash orqaligina masalaga yechim topish mumkin.

Hozirgi paytda qishloq xo‘jaligi tizimida 10 ta oliy ta’lim muassasasi, 26 ta professional ta’lim maskani, 21 ta ilmiy-tadqiqot instituti hamda 51 ta ilmiy-tajriba stansiyasi mavjud. Ularda faoliyat olib borayotgan 3 mingdan ziyod xodimning 790 nafari bevosita ilmiy izlanishlar bilan mashg‘ul.

O‘zbek olimlari qishloq xo‘jaligi ekinlari genomi chuqur molekulyar tahlillari asosida zamonaviy markerlarga asoslangan seleksiya dasturlarini joriy qilgan. Bu an’anaviy seleksiya usullaridan kam vaqt va mablag‘ talab etishi bilan ustundir. Natijada O‘zbekistonda ilk bor RNK interferensiya – genlarni “o‘chirish” texnologiyasi yordamida yangi hosildor, ertapishar va tola sifati yaxshilangan biotexnologik “Porloq” turkumidagi g‘o‘za navlari yaratilgan va parvarishlanib kelinmoqda.

Shuningdek, aynan shu texnologiyani qo‘llash orqali, g‘o‘zaning “Bardosh”, bug‘doyning “Barkamol” va kartoshkaning “Bisyor” navlari olinib, fermer xo‘jaliklarida dastlabki sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tdi. Qolaversa, g‘o‘zada bir vaqtning o‘zida qurg‘oqchilik, sho‘rxoklik va sovuq stresslariga javob beruvchi gen aniqlanib, mahalliy navlarga tatbiq etildi. In-vitro usulida yangi virusga chidamli qishloq xo‘jaligi ekinlarini olish tajribalari ham natijadorligi bilan ahamiyatlidir. O‘zbekistonda mana shunday 7 ta yuqori texnologik in-vitro korxonalari faoliyat yuritib, yiliga virusdan xoli 15 mln dona meva ko‘chatlari yetishtirilmoqda.

Endigi ustuvor vazifa qishloq xo‘jaligida iqlim o‘zgarishi muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish uchun yanada zamonaviy biotexnologiyalarni joriy qilish, genomika bilan bog‘liq yangi yo‘nalishlarni rivojlantirishdir. Xususan, genomni aniq tahrirlash (CRISPR-Cas9), “speed breeding”, genom seleksiya va markerlarga asoslangan seleksiya texnologiyalarini hamda sintetik biologiyani keng rivojlantirish muhim.

Bu ekinlarning zararkunandalar, kasalliklar va iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq og‘ir ekologik sharoitlarga chidamli navlarini yaratishga imkon beradi. Bundan tashqari, prognoz modellashtirish, mashinal tadqiq (machine learning) va sun’iy intellektni tatbiq etish zarur. Bu genom ma’lumotlari asosida genetik xususiyatlarning eng istiqbolli kombinatsiyalarini prognoz qilishga yordam beradi va yangi navlarni yaratish uchun ketadigan muddatni qisqartiradi. Shuningdek, suvdan foydalanishni optimallashtirish va tuproq degradatsiyasini kamaytirishga erishiladi.

– Jadid bobolarimiz ichida agrar soha rivojiga kimlar hissa qo‘shgan, deya olasiz?

– Jadid bobolarimizdan bir necha nafarini misol qilish mumkin. Ular el-u yurtni ravnaq toptirish, xalqqa, ayniqsa, yoshlarga yangicha uslubda ta’lim-tarbiya berishga katta e’tibor qaratishgan, shu maqsadda chet tillarini mukammal o‘rganib, xorijda tahsil olish orqali zamonaviy bilim va tajribalarni yurtimizga olib kelgan. O‘sha davrning iqtidorli yoshlari orasida Solih Muhammedovni misol qilsa bo‘ladi. U 1924–1927-yillar mobaynida Germaniyaning Shtutgart shahridagi Oliy ziroat akademiyasida bog‘dorchilik-agronomiya yo‘nalishida tahsil olib, tug‘ilib o‘sgan yurtiga tayyor agronom kadr bo‘lib qaytgan.

U mehnat faoliyatini Kattaqo‘rg‘ondagi tajriba stansiyasida boshlab, so‘ng Samarqanddagi urug‘chilik boshqarmasi rahbari bo‘lib ishlaydi. Qaysi mas’ul lavozimda faoliyat olib bormasin, sohani ilmiy jihatdan o‘rganishga, yangi tajribalar orttirishga katta ahamiyat qaratadi. Keyinchalik u Davlat urug‘chilik boshqarmasi rahbari bo‘lib ishlaydi.

Yana bir bobomiz xorazmlik Olimjon Qodiriy ham Moskva, Berlin shaharlarida tahsil olgan. U 1923–1927-yillarda Germaniyaning Visenxauzen shahridagi Qishloq xo‘jaligi akademiyasida ta’lim olgan. Yevropada oliy ma’lumot olgan o‘zbek agronomi Olimjon Qodiriy O‘zbekistonga qaytib kelib, Samarqand qishloq xo‘jaligi institutining “Tuproqshunoslik va umumiy yer ishi” kafedrasida mehnat qiladi va aspiranturada o‘qiydi. U qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirish va bu sohadagi o‘zbekcha darsliklarni ko‘paytirish yo‘lida samarali faoliyat olib borgan.

Toshkentlik Abduvahob Murodiy bobomiz esa Berlin Oliy ziroat maktabini bitirgan. U O‘zbekistonning birinchi diplomli agronomidir. Abduvahob Murodiy paxta ishlarini har tomondan o‘rganish uchun Misrda bo‘lib, Paxta jinsini yaxshilash institutida tajriba orttiradi.

U Germaniyadan keltirgan bolalar adabiyoti namunalarini o‘zbek tiliga tarjima qiladi, shuningdek, o‘zi ham qator darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratadi. Jumladan, “Botanika”, “Paxta yetishtirish usullari” kabi kitoblari shu paytda chop etiladi. Abduvahob Murodiy Shreder nomidagi Bog‘dorchilik ilmiy-tekshirish institutida direktor muovini vazifasida ham faoliyat yuritgan. Ha, bobolarimiz ilm-ma’rifat egallash hamda ona Vatanga xizmat qilishni sharaf deb bilgan. Zero, bu xislat xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Bugungi kun yoshlari ularning sharafli hayot yo‘lidan ibrat olib, ilm o‘rganish, yaratuvchanlik, izlanish bobida tinimsiz g‘ayrat qilishsa, katta natijalarga erishishlariga shubha yo‘q.

– “Jadid” gazetasi mushtariylariga tilaklaringiz.

– Mushtariylarga millat sifatida nechog‘lik qadimiy va ulug‘ ekanimizni doim yodda tutishlarini, ajdodlarimiz qoni hamon tanamizda oqayotganini esdan chiqarmasligi – bundan g‘ururlanishi, jadid bobolarimiz kabi millat va Vatan qayg‘usi bilan yashashni odat qilishi, marrani baland olishi, qadriyatlarni e’tiborsiz qoldirmasligi, kelajak avlod oldidagi mas’uliyatni doimo yodda tutgan holda, yashashlarini tilayman.

– Mazmunli suhbatingiz uchun rahmat. Ezgu tilaklar o‘zingizga ham yo‘ldosh bo‘lsin!

Iqbol MIRZO suhbatlashdi.

TURSUNOY SODIQOVA TAVALLUDINING 80 YILLIGI

“BU EL MENGA OG‘O, SINGIL, YOR-U SIRDOSH...”

Boshlanishi 1-sahifada.

Ta’bir joiz bo‘lsa, Tursunoy Sodiqova haqidagi fikrlar, yodlovlar, e’tibor va e’tiroflar debochasi bir guruh ijodkorlarni olib ketayotgan Toshkent–Andijon poyezdidayoq boshlanib ketdi.

– Tursunoy opa Vatanni sevgan, unga sevimli bo‘lolgan farzand, – deydi filologiya fanlari doktori, adabiyotshunos olim Hamidulla Boltaboyev. – Uning shoirlik iste’dodi ham, voizlik mahorati ham Vatanni obod etuvchi oila muqaddasligi g‘oyasi bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi.

– Tursunoy opani o‘qisam, o‘ylasam, xayolimga faylasuf donishmand degan tavsif keladi, – deb so‘z boshlaydi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o‘rinbosari, taniqli shoir Minhojiddin Mirzo. – Opa shoiralik, olimalik bilan birga Tangri tomonidan berilgan betakror so‘z san’atkori ham edi. Yana bir ta’rif shuki, opa muhabbat, mehr, sadoqat bilan bog‘liq lafzida hech qachon hayo, latofat andozasidan, o‘zbek ayoli hamiyati chegarasidan chiqmasdi.

* * *

Temir yo‘l vokzalida xotira anjumani mehmonlarini kutib olishdan tortib Andijon pedagogika, xorijiy tillar, qishloq xo‘jaligi institutlarida bo‘lib o‘tgan uchrashuvlar muxlislar jo‘shqinligi bilan rasmiy ssenariylarsiz juda samimiy o‘tdi. Minbar olganlarning qog‘ozsiz, juda tabiiy, qalbidagi hayajonini so‘zga ko‘chirishlari ham Tursunoy Sodiqovaning fe’l-u fazilatlari, istaklariga mos bo‘ldi..

* * *

Tursunoy opaning farzandlari, yaqinlari, shogirdlari orasida “opaning gullari”, “kitob javonlari” degan alohida ibora bor. Anjuman ishtirokchilarini opa xonadonida suyib, sizlab o‘stirgan gullari, eng katta boyligim deb ta’riflagan tartibli javonlardagi noyob kitoblari ham xursand, ham mahzun kutib oldilar. Tursunoy opaning bir suygani gul, bir e’tiqod qo‘ygani kitob edi axir.

– Tursunoy opaning bundan o‘ttiz yil avval o‘zi o‘qigan bir she’ri yodimga muhrlangan, – dedi sokin ovozda Minhojiddin Mirzo:



Andijonda xonumonim va
nomim Andijoniydur,
Bu fe’lim ichra ne yaxshi-yomonim
Andijoniydur.
Bu el menga og‘o, singil, yor-u sirdosh,
homiydur,
Chinim shu, qolg‘ani yolg‘on,
topganim bari foniydur,
Meni shu yerda bor etding,
o‘larda shunda o‘ldirg‘il.

Qaranglarkim, so‘z muqaddas va u aytuvchining qismatiga, taqdiriga aylanguvchi haqiqat ekan. Opani o‘zi so‘raganiday Andijon tuprog‘i va el qalbi o‘z bag‘riga oldi.

* * *

Opaning o‘z ta’biri bilan aytganda, xotira anjumanining “ulgurja” yakuniy qismi Andijon davlat universitetida bo‘ldi. Bu dargoh Tursunoy Sodiqovaning bir necha yillik mehnat faoliyatiga guvoh. Tabiiyki, bu maskanda uning muxlislari hammadan ko‘p.

– Tursunoy Sodiqova shoira, publitsist. Lekin u eng avvalo, mohir muallima, – dedi o‘z nutqida universitet rektori, professor Akromjon Yo‘ldoshev. – Opa filologiya fakultetimizning o‘zbek adabiyoti kafedrasi faoliyatida eng mohir muallima-pedagog sifatida katta hurmat qozongan. Juda ko‘p talabalarimizning iste’dodi ochilishida jonkuyarlik qilgan ustozdir.

Ha, Tursunoy Sodiqova she’rni iste’dod ila yozolgan, she’rga sig‘magan hayrat-u hayajonini, millat dardi, Vatan qayg‘usi borasidagi donish-fikrlarini nasrda bera olgan ijodkor edi. Uning oila iqlimi, qaynonalik ilmi, kelinlik salohiyati, kuyovlik burchi, opa-singillik mehr-oqibati haqidagi o‘ttizga yaqin kitoblari bugun muxlislarning noyob mulkiga aylangan.

Opamiz o‘zbekona jaydari lutflari bilan yurtimizning esini tanigan har bir vakiliga qadrdon siymoga aylangan edi. Bugun ham shoiraning o‘lmas misralari, qayralma qochirimlari, tagdor pichinglari, purma’no nasihatlari o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Ishonchim komilki, hayotiy tajribaga tayangan bu o‘ziga xos falsafiy xazina hali ko‘p yillar davomida xalqimizga beminnat dur sochadi. Tursunoy Sodiqova o‘zining ikkinchi umrini ham munis ayol, donishmand ona, sadoqatli do‘st timsolida yashamoqda.

Zamira RO‘ZIYEVA

MURABBIYLAR KIMLAR?

Murabbiylar kimlar? Bular otalar, onalardir. Bular aka-opa, amaki-tog‘a, amma-xolalardir. O‘qituvchilar, tarbiyachilardir. Bular hunar o‘rgatayotgan ustozlar, qo‘shni bolaga nasihat qilayotgan hamsoya, ibratli ertag-u o‘gitlar xazinasi bo‘lgan buvi-buvalar va kelin tarbiyalayotgan qaynonalardir. Kamchiligingni birgalashib o‘nglayotgan do‘sting ham murabbiy! Garchi gaplashib ko‘rmagan bo‘lsang-da, sen kiyinishini, muomalasini, yurish-turishini havas qilayotganing – ko‘z tanishing ham murabbiydir. Agar ziyrak bo‘lsang, asfaltni yorib chiqayotgan maysa, intizom bilan bir chiziqqa tizilib uchayotgan laylaklar ham saboq berayotganini ko‘rasan. Yo‘lakda senga nazokat bilan yo‘l berib, kayfiyatingni ko‘targan yo‘lovchi-yu malolini solmay, besharpa yashab kelayotgan tamizli qo‘shninggacha bahosi yo‘q murabbiydir! Bu dunyo to‘la murabbiy va dunyoda hamma mavjudlik murabbiyga muhtojdir! Atrofga xolis ustozlik, murabbiylik qilish – bu ibodat, murabbiylardan ishtiyoq bilan ilm, hunar va tajriba o‘rganish esa yana ibodatdir.

ONA UYIM

U men tuygan birinchi kuy, birinchi olam,
Qushchalarim chug‘uriday quvnoq kulgim u.
Ilk bor tergan boychechagim, sevinchlarim ham,
Qaylardadir tushib qolgan sochpopugim u.
O‘n to‘qqizga to‘lgan yoshim husn-u chiroyi,
Zavq-shavqiga hamroh bo‘lgan guvoh ko‘cham u.
Ilk martaba qalam tutib, bilib-bilmayin
She’r to‘qishni orzu etgan sirli kecham u.
Qachonlardir shu ko‘chadan meni so‘roqlab,
Izlab, bo‘zlab o‘tgan emish aziz kishim ham.
Soy bo‘yida qolib ketdi talay sirlarim,
Yoshligim-la ketdi qancha chala ishim ham.
O‘sha yerda tabarrugim – otam poyini
Boshi uzra tutgan ko‘hna, aziz ostonam.
Qizlar bilan kashta tikib, yayrab yoyilib,
Shivirlashib tong ottirgan fayzli xonam.
Xayolimdan o‘tar go‘yo shirin tush misol,
Hovlimizning burchidagi mung‘aygan tandir.
Munis onam balki shu payt yonoqlari ol,
Menga atab issiq kulcha yopayotgandir...

Tursunoy SODIQOVA

ADABIY DO‘STLIK

“HAR O‘ZBEKKA AYTAR GAPIM BOR”

shoir va tarjimon Endryu Stenilend bilan suhbat

Endryu Stenilend 1959-yilda Angliyaning Sheffild shahrida tug‘ilgan. Durhem universitetida siyosat bo‘yicha tahsil olgan. Shoirning “To‘rt pyesa”, “Uch kino-she’r”, “Yorug‘lik vazni”, “Ruhiyat chiroyi”, “Yangi she’rlar”, “So‘nmas she’riyat”, “O‘ynoqi she’rlar”, “Tanishuv xatlari”, “Gurjiston bayozi” kabi she’riy to‘plamlari, mansura-romanlari mavjud.

Stenilend O‘zbekistonga ilk sayohatidan so‘ng mumtoz va zamonaviy o‘zbek she’riyatidan tarjimalar qilishni boshlagan. Shu kunga qadar “Navoiydan 12 g‘azal, Cho‘lpondan 14 she’r”, “Nodira va Uvaysiy: tanlangan she’rlar”, “Uch qoraqalpoq shoiri”, “Yangi usul. Yangi she’riyat” kabi to‘plamlarni tarjima qilishda katta hissa qo‘shgan. Shuningdek, o‘zbek mumtoz she’riyatidan ilhomlangan shoir oxirgi yillarda o‘zining “Yangi devon” va “To‘rtliklarda” nomli she’riy to‘plamlarini chop ettirgan.

– Janob Stenilend, avvalo, suhbatga rozilik berganingiz uchun tashakkur. Ayting-chi, o‘zbek adabiyotiga qiziqishingiz qachondan boshlangan?

– Aslida, suhbatga chorlaganingiz uchun sizdan minnatdorman. Tarjimai holimda og‘iz ko‘pirtirib aytadigan narsaning o‘zi yo‘q. Angliya janubidagi Chichester shahrida istiqomat qilaman. Oltmish beshni qoralab qo‘ydim, hayotimning ko‘pgina qismini she’r yozish va ruhiyatim ustida ishlashga sarfladim. Bu ikkovi ham botiniy mashg‘ulot bo‘lganidan, ko‘p to‘xtalib o‘tirish joiz deb bilmayman. Adog‘i ko‘rinmaydigan yutuqlarim ro‘yxati yo‘q, lekin bular bilan mashg‘ul ekanimning o‘zi men uchun yetarli.

O‘zbekistonga qiziqishim yaqin yillarda, aniqroq aytganda, besh yil oldin to‘satdan paydo bo‘lgan. Buxoro va Samarqand tasvirlariga ko‘zim tushdi-yu, yurtingizga tashrif buyurish istagi tinch qo‘ymadi. Ilk bor O‘zbekistonga borganimda bu o‘lkaning naqadar maftunkor va ilhombaxsh ekani, boy tarixiy-madaniy merosga egaligini kashf etganman.

O‘zbek adabiyotiga qiziqishim esa Alisher Navoiydan boshlangan. O‘zbekistonga borarkansiz, go‘zal obidalar, sopol idishlar-u antiqa buyumlardan ko‘zingiz quvnaydi, dilbar kuylardan bahra olasiz, milliy taomlardan tatib ko‘rasiz va albatta, har qadamda Alisher Navoiyning nomiga duch kelasiz. Taassufki, uning ijodi juda kam tarjima qilingan. Men ham Navoiy g‘azallarini hamkor tarjimon yordamida ingliz tiliga o‘girish orqali hazrat ijodidan yanada ko‘proq bahra olganman, tajriba orttirganman. Xullas, hammasi shu nuqtadan boshlangan.

– Yuqorida umringizning ma’lum qismini she’r yozishga sarflaganingizni aytdingiz. O‘zbek she’rxonlari she’rlaringizni A’zam Obid tarjimasida o‘qigan. Demak, shoir va tarjimon, ikki mamlakat adabiyotini bilgan ijodkor sifatida o‘zbek va ingliz she’riyatida qanday o‘xshash va farqli jihatlarni ko‘rasiz?

– Shoir va tarjimon do‘stim A’zam Obid “To‘rtliklarda” nomli oxirgi she’riy to‘plamimdan uch-to‘rt she’rni o‘zbekchalashtirgandi.

Bundan minnatdorman, lekin ochiq aytadigan bo‘lsam, she’rlari boshqa tilga tarjima qilingan shoir bo‘lish menga biroz g‘alati tuyiladi. Savolingizga esa javob berishim qiyin. Sababi, o‘zbek tilini u qadar mukammal bilmayman, hamkorlikda qilingan tarjimalarim, muharrirlik qilgan ishlarim yuzasidan biron nima deyishim mumkin, xolos. Ingliz she’riyati esa boshqa she’riyat bilan solishtiradigan darajada yaxlit hodisa emas, deb hisoblayman. Mumtoz she’riyatimiz va zamonaviy ingliz she’riyati bir-biridan juda farq qiladi, nafaqat bir-biridan, balki har birining ichki oqimlarida ham tafovut katta.

– Shu kunga qadar bir qancha o‘zbek mumtoz shoirlari, zamonaviy she’riyat vakillari ijodini tarjima qilgansiz. Bular orasida Navoiy, Nodira, Uvaysiy, Cho‘lpon, Ibroyim Yusupov bor. Tarjima jarayonini qanday olib borishingiz haqida batafsil ayta olasizmi? Masalan, tarjima qilinajak she’rlarni saralash, aloqador manbalarni ko‘zdan kechirish, hamkor tarjimonlar bilan ishlash va hokazolar.

– She’rlarni saralash… Qiziq savol bo‘ldi. Bu eng birinchi jarayon hisoblanadi. Aytmoqchimanki, biror shoirni tarjima qilmoqchimisiz, uning sara she’rlari jamlangan, yaxshi annotatsiya bilan boyitilgan saylanmasini qo‘lga olish kerak. Avvaliga qaysilarini tanlashni hal qilasiz (menda bu doim hamkor tarjimonlar ko‘magi bilan bo‘ladi), keyin esa navbat tarjimaga. Masalan, jadid she’riyatini tarjima qilishga kirisharkanmiz, erkak shoirlar ijodiga oid ma’lumotlarni topish qiyin bo‘lgani yo‘q. Ammo antologiyadagi yagona shoira – Nozimaxonimning she’rlarini va u haqida kerakli manbalarni topishda ancha ter to‘kdik. Nodira va Uvaysiy she’rlarini topishda ham ayni qiyinchilikka duch keldik. Ularning ba’zi she’rlari haligacha nashr etilmagan ekan! Ingliz noshirlari ulug‘ ingliz shoirlarining nashr etilmagan she’rlariga duch kelsa bormi, o‘sha zahoti talashib-tortishib chop etish payida bo‘ladi!

Qaysi she’rlarni tanlashga kelsak, avvalo auditoriyani inobatga olish muhim. Qaysi she’rlar ingliz o‘quvchiga qiziq bo‘ladi, qaysisi tarjimaga mos tushadi, qolaversa, qaysilari kaminaga ma’qul keladi va hokazo.

Tarjima jarayoni esa quyidagicha kechadi: hamkor tarjimonlar menga she’rlarning so‘zma-so‘z tarjimalarini tayyorlab yuborishadi. Ularning taglama tarjimasi mening inglizchaga o‘girishimga asos vazifasini o‘taydi. Bunda she’r shakli, bandlar tarkibi, satrlar hajmi, qofiyalanish tartibi va boshqalar aniqlab olinadi. Qolaversa, bu she’rning ma’nosi o‘zgarib ketmasligini ham ta’minlaydi. Taglama tarjima men uchun xuddi yo‘lboshchiga yoki manzilga eltadigan xaritaga o‘xshaydi. U orqali she’rning ruhiyatiga, ma’nolar olamiga sayohat qilaman. Shuningdek, sayohat davomida menga lug‘atlar ham hamrohlik qiladi. Sirasini aytganda, shu orqali bir tilda yozilgan she’rni boshqa tilga o‘girish, qayta jon kiritish imkoni paydo bo‘ladi. Hamkor tarjimonlar to‘g‘ri yo‘ldan ketyapmanmi, yo‘qmi, aytib ham turishadi. Shu o‘rinda, “Nodira va Uvaysiy” to‘plami tarjimasida katta yordam bergan Nozila Elmi va Aidaxon Bumatovalarga minnatdorligimni yetkazmoqchiman.

– Siz nafaqat o‘zbek, balki qardosh qoraqalpoq she’riyatidan ham tarjimalarga qo‘l urgansiz. “Uch qoraqalpoq shoiri” nomli to‘plamni nashrga tayyorlashga nima turtki bo‘ldi?

– Eng asosiy turtki to‘plamni tayyorlash jarayonida paydo bo‘ldi. Avvaliga, shunchaki qiziqish yuzasidan o‘rgangan va qachondir tarjima qilsam yaxshi bo‘lardi, deb o‘ylab qo‘ygandim, xolos. Asta-sekin she’rlarning saviyasi va dolzarbligi tosh bosib boraverdi. XIX asrning ikki yirik shoiri Berdaq va Ajiniyozni qoraqalpoq tilida forsiyona go‘zal she’rlar yozgan deyish mumkin. Ammo ularning xalq og‘zaki ijodi va turkiy-forsiy mumtoz she’riyati unsurlarini qorishtirib yozgan gibrid she’rlari, qoraqalpoq xalqining dardini qog‘ozga ko‘chirgan asarlari, menimcha, ingliz she’rxoni uchun ko‘proq dolzarb hisoblanadi. Qolaversa, XX asr qoraqalpoq she’riyatining yirik vakili Ibroyim Yusupov ham dilbar lirik shoir bo‘lish



bilan birga, Orol dengizi fojiasiga bag‘ishlangan ulkan ijtimoiy she’rlari bilan jahon ahamiyatiga molik deb hisoblayman. Afsuski, bu shoirlar bugungi kungacha dunyo adabiy sahnasida unchalik mashhur emas, hanuz ularning asarlari inglizzabon o‘quvchilarga yetib borishi muammosi dolzarbligicha qolmoqda.

– Endi esa bevosita yangi tarjima kitobingiz – “Yangi she’riyat. Yangi usul” haqida gaplashsak. Jadid she’riyati namunalarini ingliz tiliga o‘girish fikri qayerdan keldi va bu ishda kimlar sizga ko‘mak berdi?

– Ilgari ham jadid adabiyotidan tarjimalarga qo‘l urganman. Ilk bor “Navoiydan 14 g‘azal, Cho‘lpondan 12 she’r” deb nomlangan she’riy tarjimalar kitobini e’lon qilgan edik. Navoiy ijodidan tarjimalarim alohida kitob holida illyustratsiyalar bilan boyitilib nashrga tayyorlandi, bu haqda keyinroq batafsil to‘xtalishim mumkin. Cho‘lpon she’rlarini ham alohida to‘plam qilish niyatida edim, shundan bo‘lsa kerak, jadid she’riyati antologiyasini tuzish o‘z-o‘zidan aniq rejaga aylandi. Cho‘lponning o‘n to‘rtta she’rini Avazxon Haydarovning taglama tarjimalari yordamida o‘girdim. A’zam Obid bilan hamkorlikda yana to‘rtta she’rini tarjima qildik. Shunday qilib, do‘stlarim Avazxon va A’zamning tirishqoqligi bilan jarayon ancha jadal va silliq kechdi.

– O‘zbekistonga bir necha bor kelgansiz, yurtimizning turli go‘shalarini ko‘rgansiz, qolaversa, o‘zbek shoir va tarjimonlari orasida do‘stlaringiz anchagina. O‘zbekiston va o‘zbekistonliklar haqida taassurotingiz qanday?

– Hozircha yurtingizga uch marta sayohat qildim. Birinchi gal borganimda, u yerda bironta tanishim yo‘q edi. Ikkinchi martasida esa allaqachon ko‘rishadigan do‘stlarim ro‘yxatini tuzib qo‘ygandim. Menimcha, shuning o‘ziyoq mamlakatingiz haqida ko‘p narsani anglatadi. O‘zbekistonga borish har doim o‘zgacha zavq beradi. Juda g‘aroyib, ilhombaxsh, shuningdek, sayohat uchun xavfsiz va qulay ham. Menimcha, har qancha urinmay, O‘zbekistonga birinchi tashrifimdan keyin chop etilgan “Yangi devon” nomli she’riy to‘plamimdagi oxirgi she’rdagidek taassurotlarimni ifodalay olmasam kerak:

Aytsam ta’rifiga so‘z ko‘pdir, biroq
mening har o‘zbekka aytar gapim bor.
Hayratimni haddan oshirgan jihat
Faqat yurt chiroyi emasdir zinhor.
Buxoroning boqiy binolari yo
Samarqandning sirli salobatimas,
Qo‘lingizni ko‘ksga qo‘yishingiz-u
sodda mehringizga qilaman havas.

– Kelgusi rejalaringizga to‘xtalsak. Yana qaysi mualliflar ijodidan tarjima qilishni ko‘zlab qo‘ygansiz? Qanday adabiy loyihalaringiz bor?

– Yaqindagina ikkita yangi tarjima to‘plamimiz – “Yangi usul. Yangi she’riyat” va “Uch qoraqalpoq shoiri” nashrdan chiqdi, tez orada inglizzabon o‘quvchilar ommasiga yetib boradi, degan umiddaman. Qolaversa, Dilshodi Barno va Anbar Otin ijodidan tarjima boshlab qo‘yganman. Orada biroz tanaffus qilishga to‘g‘ri keldi-yu, lekin tez orada yana jadal ishlashga qaytamiz, degan niyatdaman. Yuqorida aytganimdek, Aidaxon Bumatova bilan hamkorlikda Alisher Navoiy g‘azallari va ruboiylarining illyustratsiyalar bilan to‘ldirilgan kitobi ham bor. Umid qilamanki, tez kunda bu kitob ham nashrdan chiqadi. Aytganday, bulardan tashqari, o‘zimning ijodim ham bor. Axiyri ikki yil deganda yana she’r yoza boshladim. Demak, yangi-yangi she’rlar yozish davri keldi.

– Janob Stenilend, ko‘zlagan rejalaringiz amalga oshishiga tilakdoshmiz. O‘zbek she’riyati targ‘ibotidan charchamang, yurtimiz va adabiyotimiz bilan hamkorligingiz bardavom bo‘lsin. Suhbat uchun tashakkur!

– Sizga ham katta rahmat. O‘zbekistonga mehrimni, o‘zbek do‘stlarimga samimiy salomlarimni mazkur suhbat vositasida yo‘llashga imkon yaratganingiz uchun minnatdorman. Ko‘rishguncha, deb qolaman.

Shohrux USMONOV
suhbatlashdi.

HIKOYA

G‘AROV

Qulman OCHIL

Siddiq aka bo‘y-basti duppa-durust, kelishgan odam. Mayin sochlari siyrakroq, qo‘yko‘zlari qisiqroq, yoqimtoy. Gap so‘rasangiz, avval muloyimgina jilmayib qo‘yish odati bor. Ilyos aka bilan to‘n kiyishmagan bo‘lsada, kiyishgandan qalin. Moskvada mo‘yqalam ilmidan birga tahsil olgan. Hujradoshlar. Hali qarasangiz, ikkalasi Shahrisabz tomonlarda – Hisor tog‘i etaklarida irg‘ishlab yurgan, boshqa kuni rassomlarning Chorboqdagi dala hovlisida dumalab yotgan.

Hayron bo‘lardim: fe’lan biri biriga teskari bu ikki musavvirning orasidan qil o‘tmaydiki, boisi nima? Ilyos aka deganimizning ovozi gavdasiday yo‘g‘on, dag‘al. Taroqdan begonalashib ketgan sochi yelkasiga, ko‘kala soqoli ko‘ksiga tushgan. Beti tovoqday. Qalin tirnoqlarini vaqti-soatida olishiga gumonim bor. Joyi kelsa, o‘zini devonalikka oladi-yu, uribso‘kib bo‘lsa-da, gapini o‘tkazadi. Ko‘ngliga kelganidan qaytmaydi. Na yaxshini biladi, na yomonni: “Maynamni titma. Maniki tog‘di balasi. Man sani bir urgan, san o‘lgan, к чёрту!..” Portretchi. Chizgani – ro‘moli savatday momolar-u dastori qozonday bobolar, juldur kiyimli oyoqyalang bolakaylar. Onda-sonda mehnat ilg‘orlari, xushbichim, xushro‘y juvonlar, viqori baland arboblarki, o‘ta jiddiy. Yuz-ko‘ziga mahzunlik soya tashlagan odamlar.

Siddiq akamiz esa yetimday miskin, siniq. Ijodkor qavmiga tekkan kasallik – o‘zini bo‘lar-bo‘lmas davralarga urish-u kerilishlardan yiroq. Soqolini olmay ko‘chaga chiqqanini ko‘rmaysiz. Dazmol bosilmasa, paypog‘ini ham kiymaydi. “Orastalik menga rahmatli otamdan o‘tgan”, degani yodimda. “Otangiz kim bo‘lganlar?” deb so‘raganimda, dudmalroq javob qilgan: “Sizning padaringiz ham eskichani bilganlar, chog‘i...”

Tabiat qo‘ynini qo‘msab yo‘lga chiqsag-u biror dovonga yetsak, aytadiki, oynam, shu yerda bir saqlab oling! Tepalikda o‘tirib tog‘larga tutashib ketgan adirlar, soylar, o‘lanzorlarni soatlab kiprik qoqmay kuzatadi. Kuzatganlari ajoyib manzarali kartinalarga aylanadi. Erinmagan odam!

Qurdoshlarning oti-ovozasi iqlimlar osha ketgan. Asarlari ko‘rgazmadan ko‘rgazmaga ko‘chib yuradi. Bu yog‘i Kubadan Yaponiyagacha aylanib chiqqanini aytib o‘tirmay.

Molbertining bag‘ri bo‘shadi deguncha ular meni yerning tagidan bo‘lsayam vaqt-bevaqt qidirib topadi: “Bir kelib keting qishlog‘imizga!” Demak, yangi asar tayyor! Endi san’atshunosning xolis fikri zarur. Ularning ijodxonasi yonmayon, “Minor” qabristoni yonidagi oqposhsho zamonidan qolgan g‘ishtin imoratda. Hayallatmay yetib boraman. Qo‘limni orqaga qilib, do‘kay qiyofada kartinaning u yog‘idan o‘taman, bu yog‘idan o‘taman. Uzoqdan qarayman. Yaqinroqdan tikilaman. “Ну, как тебе?” deydi toqati toq bo‘lgan Siddiq aka. U do‘stining oldida o‘rischa gapiradi. Darhol javob berib bo‘libman. Boshimni mujmal silkib qo‘yaman. Ikkalasining ichini qizitgim keladi. Hazilmi, dong‘i ketgan musavvirlar fikrimga mushtoq. Kutayotir. Iloji qancha! Xavotirni ham unutganim yo‘q: jo‘yasiz gap aytib, ixlosi beqiyos akalarimni ranjitib qo‘yishdan cho‘chiyman. Nihoyat, labimdan bir so‘z otilib chiqadi: “Shedevr!”

Ular menga ishonqiramaydi. Endi asarning durdonai mutlaq ekanini isbotlashim, muhimi, ikkovini e’tirofimga ishontirishim darkor. Eng qiyini – shu. Eplayman.

Keyin bitimizni to‘kamiz. Siddiq aka chimxo‘r. Qadahga labini tekkizishdan nariga o‘tmaydi. Yeyish-ichish, hangomani oshnasiga chiqargan. Araqni kosalab simirib, tandirkabobni kilolab yeydi.

Bir safar baland qoyalar o‘rtasidagi sersoya daraga borib qoldik. Bahaybat xarsanglar, tog‘ni ikkiga bo‘lib oqayotgan soy, oltinrangga kira boshlagan maysazor, qoyalarga tirmashib o‘sgan archalar, cho‘qqilar uzra ko‘tarilayotgan yengil hovur, osmonda suzib yurgan parqu bulutlar... Soyning shovullashini aytmaganda, sokin-osuda. Uchalamiz ham go‘yo tildan qolib, maftunkor manzaradan ko‘z uzolmay turganimizda kimdir na’ra tortib yubordi:

– Ey otajo-on!..

Sapchib tushdim. Qarasam: Ilyos aka. Hali, sayhonlikda o‘tirganimizda ozroq “otib olgandi”. Gumburlagan daradan bo‘rining uvullashidek javob keldi. Tebranib turgan aks sadoga yangi hayqiriq qorishib ketdi:

– Ey onajo-on!..

Etlarim jimirlab ketdi. Dard, alam, armonlarga to‘la nido: “Qaydasiz? Qaylardasiz, azizlarim? Ko‘kayginam kesilib ketdi-ku!..”

– Ey osmo-on!..

Fahmlashimcha, endi u go‘yo aytmoqchi bo‘lardiki, “hammasiga o‘zing guvohsan-ku, ey falak! Sen nega jimsan?..” Yo‘lini yo‘qotib, galdirab qolgan va yashashga havasi so‘na boshlagan yolg‘izning oh-u zori. Daraning narigi etagida ikki uyum oppoq bulut ochiq darvozadan qaraganday bizni osoyishta kuzatib turardi.

– Ey Yo-o-or!..

Boshida maqom xonishini eslatgan bu iltijoning pardalari tobora avjiga chiqib, shunday chinqiriqqa aylandiki, larzadan qoyalar atrofga sochilib ketguday bo‘ldi.

– Yo-o-or!..

O‘qigan edim: qafasga tushgan yo‘lbars shunday vahimali o‘kiradi. Quloqlarimni bekitgim keldi! Tortindim. Bandasining tavallosiga falak bokaram million yillik metin qoyalar orasidan go‘yo bosiqdan bosiq javob qaytardi: “O-o-or!..”

Bo‘g‘riqqan yuzlari xurmo tusiga kirib, bo‘yin tomirlari bo‘rtib-ko‘karib ketgan akaning boshi ana-mana yorilib, qoni favvoradek otiladiganday. Shu xavotir xayolimdan o‘tib turganida u o‘qqa uchgan kiyikday quladi-yu, tiz cho‘kdi. Yo tavba! Suyamoqqa shoshilgan edim, oshnasi yengimdan tortdi: “Qo‘yavering!..”

Ilyos aka zarang yerni mushtlay-mushtlay tinchib qoldi! Turib, soy tomon yurganida burnidan oqqan qon soqolini oralab ketayotganini ko‘rdik...

O‘sha yili u ayoli Evelina Naumovnaning izidan Amerikaga oyoq uzib ketdi. Qandga chalingan qariyaday shalvirab qolgan Siddiq aka xo‘rsindi: “Akangizning shu ishi o‘sal bo‘ldi. Vatanni tug‘mas xotinga almashtirib bo‘larkanmi...”

Mezon oxirlab qolgan kezlar. Eski Juvadan bozor-o‘char qilib kelib, endi uyga kirgan edim, Siddiq aka telefonda yo‘qlab qoldi: “Birrov ko‘rishsak”. “Xo‘p”. “Ustaxonadaman”.



Surat sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi.

Ajablanganim – eshigidan bosh suqishim bilan bo‘yoq aralash spirt hidi dimog‘imni achitdi. Qovoqxonadan battar. Ko‘zlarim yoshovrab ketdi.

O‘rtada – usti yopiq azamat polotno. Rassom birovni uyg‘otib yuborishdan cho‘chiganday, avval temir eshikni, so‘ng oynalarini “ter” bosgan derazaning kambar darchasini sekingina yopib, zulfinlarini avaylab ildirdi.

– Nahorda quyosh charaqlab chiqqandi, – dedi shikasta ovozda, birovdan o‘pkalaganday. – Endi jalaga qarang. Ko‘chadagi suv qayoqqa oqishini bilolmay sarson.

Prujinalari bo‘rtib turgan divandagi beqasam ko‘rpachaga cho‘kdim. Divanning suyanchig‘i bo‘yimdan baland. Birovning tizzasida o‘tirganday bo‘laman. Burchakdagi radiolada qitir-qitir aylanayotgan plastinkadan taralgan nolayi afg‘on – “Cho‘li iroq” yurakni ezadi.

Xona sohibi kursisini men tomon surib, o‘ng qo‘lini tizzamga qo‘ydi. Lablari, ovozi titrar, yuzlari lovullab ketgan, nafasidan araq hidi kelardi. Musavvirni bunday diltang ko‘rganimni eslay olmayman. Go‘yo uzoq o‘tirib qolgan yoqimsiz mehmonni tezroq kuzatib qo‘ysa-yu ortidan shartta eshikni yopib, yengil nafas olsa.

Sezdimki, muhim, juda muhim gap aytmoqchi. Ayni qarorga kelgunicha ko‘p, haftalab, oylab o‘ylagan. Ikkilangan. Yuragi dov bermagan. Oxiri boshqa yo‘lini topolmagach, qachon, qanday aytishning surobini olgan.

Orqa-oldiga qarab gapiradigan Siddiq aka bir zum o‘ylanib turdi-da, boshini ilkis ko‘tardi:

– Sizning gardaningizga og‘ir yuk tashlayotganim uchun ezilib ketyapman, uka. Nima qilay, boshqa chora topolmadim. Jigarimday bo‘lib qolgansiz.

Uning g‘am-anduhga to‘la ko‘zlarida yosh qalqidi. Rahmatli, keyinchalik ana shunday – mo‘y bosgan g‘ussali yuzlari sarg‘aygan, aftoda holida qarog‘imda qolib ketdi. Men akani yupatgim kelgan o‘shanda. Kelgan-u, nafi yo‘qligini anglab, noiloj jim turardim. Gapi tushmagur esa rostdan ham vahimali ekan.

– Mabodo, – dedi u, – menga to‘satdan biror kor-hol bo‘lib qolsa, bola-chaqamdan xabardor bo‘lib turing. Uzilishib ketmang, iltimos! Ayniqsa, qizimdan. Bilasiz, topgan-tayangan yolg‘izim – shu qiz. O‘zingizdan qolar gap yo‘q, dardimni norasidamga aytolmayman. Uvol!..

Ich-ichimdan bir qalqib tushdim: “Bechora, qamaladigan bo‘pti-da!”

– Yo‘q, – dedi u. – Qamalsam, rozi edim. Mingdan ming rozi edim! Harna, bir kuni chiqib kelardim-da. Undan ham battarroq, ukajon! Mening kunim bitgan!..

Kunning bitishi nima ekanini anglab yetolmayotganimni sezdi. Ketma-ket olamdan o‘tgan jigarlari – kattasi avtohalokatdan, kichigi anhorga cho‘kishdan ketgan akalarini, sariq kasali boshiga yetgan opasini, ezila-ezila ado bo‘lgan ota-onasini esladi.

– Eshitgan chiqarsiz, yuragim chatoq, – dedi bo‘shang bir ovozda. – To‘rt qadam yursam, o‘pkam bo‘g‘zimga tiqilib qolayotir.

Binoning biqinidan o‘tgan qo‘sh tramvayning taraqa-turuqidan derazalar zirillab ketdi. Shu tobda menga Siddiq aka o‘lib qoladiganday tuyuldi. Vahimamni yashirmadim: bu qanday gap, aka? Tobi yo‘q odam do‘xtirlarga ko‘rinmaydimi?

U eshikka hadik bilan qarab qo‘ydi-da, yaqinroq surildi.

– Ukajon, bu qo‘tir dunyoda hamma narsa bo‘lishi mumkin... Zotimizga qarg‘ish tekkan: otam Stalinning turmasida xizmat qilgan...

Men mo‘ltirab qolaman. Aytadiki, rahmatli padari – Rahim Beknazarni eslatadigan tariqday ham nom-nishon qolmagan. Na bir surat, na bir hujjat. Hammasini marhum o‘zi bilan u dunyoga olib ketgan. Ichki kiyimidan tortib ko‘rpato‘shagigacha...

Turib, kartinaning ustidagi dog‘-dug‘ tekkan bo‘zni olib tashlaydi. Seskanib ketaman. So‘z bilan ifodalash qiyin mudhish manzara.

To‘qayzor. Jarda oqib yotgan bo‘tana suv, uzoq-uzoqlardagi shafaq, yerdagi qor – hammasi go‘yo qonga botgan. Yonayotgan g‘arovning charsillagani qulog‘imga chalinib, dimog‘imga tutun hidi urilganday bo‘ladi. Buruqsiyotgan “bukri” mashina – “Pobeda”dan bir uyum qop-qora temir-tersak qolgan. Toptalgan, chopilgan cho‘kirtak qamishlarning nayzadek tig‘larida, qordagi yalangoyoq izlarida – qon. Bo‘tanadan to‘pig‘igacha ko‘rinib qolgan ikki oyoq juppay qilib kulliklangan. Haybatli odamning oyog‘i. Baquvvat, go‘shtdor. Kamida qirq beshinchi o‘lchamdagi poyabzal kiygan. “Yurganida yer lorsillagan bo‘lsa kerak”, degan taxmin xayolimdan o‘tdi.

Beixtiyor esladim: Siddiq akaning asarlarida ko‘tarinkilik, latiflik, go‘zallik jilvalanib turardi. Bunisida... Bunisidagi dahshatli dard-faryod, telbavor talvasa aqlni shoshiradi. Faqat to‘qayzorga emas, dunyoga o‘t ketganday!..

Pastak-pastak butalarning shoxlari qorning og‘irligidan egilib qolgan. Egila-mayisha singan. Havoda muallaq qotgan shisha bonka zich bekitilib, so‘rg‘ichlangan va muhrlangan. Muhrning botiq izlariga sin solinsa, “1964” raqamini ilg‘ash mumkin. Bonka to‘la eski-tuski: “Северный одеколонъ”ning qirmizi qutisidagi oq ayiq rasmi, sarxonasi kuyib, qorayib ketgan zarang trubka, arab imlosidagi “Qizil O‘zbekiston” gazetasining sarg‘aygan sahifasidagi sarlavha: “Zulmdan tiyil”.

Siddiq aka menga yalt etib qaradi:

– Eskichadan xabaringiz bormi?

– Sal-pal.

Otasining izi uch kundan keyin kunduzi borishga ham yurak betlamaydigan ovloq joy – Qiziljardan topilgan.

– Sezishimcha, – deydi o‘g‘li, – rahmatli u yerlarni besh qo‘liday bilgan. Qachon borgan? Nega borgan?.. Kul orasidan ancha-muncha narsa chiqqan: tikyoqa kitelining tugmalari, polkovnik belgisi – besh qirrali yulduzlar, orden-medallar, komsomol nishoni, kamarining qoraygan to‘qasi, qo‘nji baland etigining bujmayib qolgan tagcharmi, muguz gardishli qora ko‘zoynagi... Hammasini ashyoviy dalil sifatida olib ketishgan.

– Kimlar?

– Ma’lum-ku, – deya pichirladi rassom.

Suv tubini titkilagan g‘avvoslarning topgani – mili balchiqqa, sadog‘i o‘qqa to‘la to‘pponcha. Polkovnikning uyi tintuv qilinganida qo‘lga ilinadigan biror narsa chiqmagan. Qulfida kaliti osilib qolgan kattakon seyf ham bo‘m-bo‘sh ekan.

Ko‘paylashib kelgan mulozimlar aytishadiki, “Rahim Beknazarovich avtohalokatga uchraganlar... To‘g‘rimi?”

Ona-bola shosha-pisha bosh irg‘aydi: “To‘g‘ri!”

Kimga, nima deb gina qilishsin? Aza ochilmaydi. O‘lik-tirikligi dargumon, tobut buyurmagan, janozasi o‘qilmagan bandaga qanday aza ochasiz. Ellikka ham bormagan ota badar ketadi.

O‘sha jar yoqasiga yana borgisi kelgan o‘g‘lining avvaliga oyog‘i tortmaydi. Baribir borib, otasidan biror nishon izlaydi. Qora tuprog‘-u go‘ngga qorishib yotgan behisob bo‘sh pistonlardan bo‘lak narsa topolmaydi.

– Otam uyda mahallarda damimiz ichimizga tushib ketardi, – deydi Siddiq aka. – Oyoq uchida yurardik. Shiddati g‘oyat baland, ashaddiy sovuqqon, qarashlari o‘qday odam ediki, hamma zirillardi. Bir kuni o‘ris qo‘shnimizning boshi xumday, oyoqlari buqanikiday yo‘g‘on, dahani pachoq iti – buldog tashlanib qolganida jonivorning jag‘ini shartta ayirib, joyida saranjomlab qo‘ygan. Ertalab eshikdan chiqayotib, onamga savol nazari bilan qarardi. Uvoqqina onam bechora birov yuziga shapaloq tortib yuborishidan cho‘chiganday, ko‘zini yerga tikib: “Bir ovqatlikkina go‘sht qoldi”, derdi. Otam cho‘ntagidan pul chiqarib uzatganida, onam uni ikki qo‘llab olar ekan, ta’zim qilayotganini ilg‘ab qolardik.

Oilaning qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shnilar bilan bordi-keldisi bo‘lmagan hisob. Hadeganda mehmon kelavermagan. Uy egasidan hayiqqan. Iste’foga chiqqaniga qaramay, uni turmaga tez-tez chaqirib turishgan. Ko‘pincha kechalari ishlagan.

– Ishdan qaytganida achchiq zax va nam tuproq hidini sezardik, – deydi Siddiq aka. – O‘zini darhol hammomga urib, uzoq yuvinar va kiyim-boshiga tinimsiz atir purkardi. Uyimizdan sartaroshxonaning hidi anqib turgani shundan.

Rahim Beknazar icha boshlaydi. Avval o‘qtin-o‘qtin, so‘ng kunda-kunora. Kayfi oshib qolganida ko‘zlari chaqchayib, jazavasi tutib ketadi: “Mulla bo‘lsa-chi? Ot! Ot deyapman senga, itvachcha!..”

Nigohlari tubsiz g‘orga o‘xshab qolgan polkovnik ko‘chadan o‘tgan-qaytganni ayvonda loqayd kuzatganicha trubkasini tutatib o‘tiradi.

– Matalga o‘xshaydi, – deb pichirlayman men.

Aka tasdiq ma’nosida bosh irg‘aydi:

– Ko‘rgilik-da, uka, ko‘rgilik!..

Rahim Beknazar qamoqxonada qaysi lavozimda ishlagan, nima ishlar qilgan – uyidagilar bilmagan. So‘rash ham, aytish ham taqiqlangan.

– Tilimiz tanglayimizga yopishtirilib, lablarimiz kavsharlanganday edi, – deydi Siddiq aka. – Hujjatlarimizga otamizning kasb-korini “O‘rta Osiyo temir yo‘l boshqarmasida muhandis”, deb yozganmiz. Onam o‘rgatgan.

Rassom najot istaganday menga iltijo bilan boqadi:

– Lekin, bilasizmi, – deydi. – Otam mulla o‘tgan degim keladi. Kelaveradi!.. Aldanib, yo‘lidan butkul adashgan bir sho‘rlik. Endi ayon bo‘layotirki, baxtiqora komsomol – puch g‘oyalar navkari...

Qizi so‘nggi nafasigacha azob chekib jon berganida toleyi past ota peshonasiga urib yig‘lagan. Yaqin-yovuqlaridan bitta-yarimi ko‘ngil so‘rab kelganida, boshida Shahrisabzning gilamdo‘ppisi, shunday tilovat qilgan, shunday tilovat qilgan!..

– Bundan chiqadiki, otamning qalbida tangrisi bo‘lgan, – deydi endi rassom o‘g‘il. – Zamoniga balo dorigan. Bir tanada ikki xil inson yashagan.

Men nima derdim – ming qilsa ham, otasi. Farzandi uning suratini chizgisi keladi. Qo‘li bormaydi. Lafz qilgan. Padari e’tirozga o‘rin qoldirmaydigan ohangda aytganki, odamzodni minba’d chiza ko‘rma. Bandasi ojiz. O‘zgaruvchan... Bog‘-rog‘lar, gullagan vodiylar, jo‘shqin soylar, qorli tog‘lar, beg‘ubor falak – mangu!..

Rahim Beknazar chap qo‘liga doka tang‘ilgan, ko‘zlari alang-jalang, o‘g‘ribashara o‘spirinni boshlab kelganida ona-bolaning rangi-quti uchadi: “Otamiz birorta ayolga ilakishib qolgan ekan-da!..” Lekin miq etishga yurak qani? Sohibi xonadon tanishtiradi: bu yigitcha – Ilyosjon. Yaqin qadrdonimning farzandi. Internat-maktabda o‘qiydi. Endi har hafta uyimizga kelib turadi.

“Qo‘lingni nega bog‘lab olding?” deb so‘raydi Siddiq mehmon boladan. Tengdoshi aytadiki, kechasi oshxonaga kirib non olib yegani uchun tarbiyachi kaftiga temir lineykaning qirrasi bilan urgan.

Farzandlariga qattiqqo‘l Rahim Beknazar bu alomat yigitchaga qolganda ko‘ngli yumshab ketadi. Taomning ham, kiyim-kechakning ham sarasi Ilyosga. Juma oqshomlari Ilyos kechiksa, uydagilarning tomog‘idan ovqat o‘tmaydi. Otasi Sochidan ikkita jemper olib kelganida Siddiqning ko‘zlari o‘ynab ketadi. Biri – qo‘lda to‘qilgan, chiroyli, qalin, sovuq deganning dodini beradi. Unisi – fabrikadan chiqqan. Yupqaroq. “Qaysi birini Ilyosga beray?” deb so‘raganida, qiblagohidan eshitgan javobi haligacha qulog‘ida: “Yaxshisini!” Talabalik yillarida ham Ilyosdan ko‘proq ahvol so‘ralgan: “Pul-muling bormi, bolam? Yo lablaring qovjirabgina och yuribsanmi?..”

– Otam o‘tganidan keyin, – deydi Siddiq aka, – onam meni yonlariga chaqirib, pichirlagan ko‘yi bilganlarini aytib bergan.

Rahim Beknazar – mirg‘azab – hukm ijrochisi bo‘lgan. Sud otishga hukm qilgan – u qo‘l ostidagi mulozimlari bilan qatlni ijro etgan. Qiyini – so‘nggi nafasida “Allohu akbar!” deb hayqiradiganlarga qarata o‘q uzish ekan. Odam o‘ldirish osonmi? Boshida qo‘li qaltiragan bo‘lsa, bora-bora qassobdan farqi qolmagan. Mazaxo‘raklikka o‘rgangan: qatl etilgan har bir jon uchun do‘rjigina pul to‘langanini aytmaganda ham, orden-medal, unvon, mansab-martaba, imtiyoz-u imkoniyatlar... Mahkumlardan biri uni tanib qolib: “Rahim Beknazar! Senmisan? – deb hayqiradi. – Iloyo, urug‘ingga o‘t tushsin! Omin, Allohu akbar!”

Bu gaplarni eshitib, juda o‘ng‘aysizlandim. “O‘lgan ilonning boshini qo‘zg‘ab nima qilardingiz, Siddiq aka?” degim keldi. Diydasidagi yoshini ko‘rib, labimni qimtigancha qoldim.

– Yigirma yil o‘tibdi, – deya armon bilan bosh chayqadi u. – Hali-hamon xayolimda otam uyimizga kirib keladiganday bo‘laveradi.

Birpas jim qoldik.

– O‘sha hayqirgan jadidlardanmikan?

Siddiq aka nigohini olib qochdi:

– Siz so‘ramang, men aytmay. Otam peshonasidan otgan o‘sha bechora mahkum Ilyos akangizning qiblagohi Ubaydulla maxsum bo‘lgan. Saboqdosh oshnasi. Ikkovi maktabda Qur’onni birga xatm qilgan.

– “Ilyos akangizning?” – deya hayron bo‘ldim men.

– Ha-da, Ilya Maksimovning!

Domla-imomning o‘g‘li Ubaydulla maxsum bilan ayoli Ziyodabibi yot unsur sifatida mahv etilganidan keyin, Rahim Beknazar ulardan qolgan go‘dakni izlab topgan. Ota-onasi selda oqib ketgan chin yetim sifatida bolalar uyiga joylashtirgan. Joylashtirishdan oldin norasidaning qo‘lini halollatgan. “Ilyos Rafiqovich Maxsumov” degan uydirma nasl-nasab bilan rasmiylashtirilgan bolakay yetimxonada voyaga yetgunicha “Ilya Rafaelovich Maksimov”ga aylanib qolgan.

Yana anig‘i shuki, mirg‘azablarning aksari aqldan ozib, jinnixonaga tushgan, o‘zini otgan, osgan. Xudkushlarning bola-chaqasiga shafqat qilinmagan. Otilmaganda ham, bor-budi xatlanib, Sibirga haydalgan.

– Otam bechora bizni ayagan, – deydi Siddiq aka. – Ahvolimiz juda og‘ir, yomon qo‘rqqan edik.

...Musavvir so‘nggi asarini kechalari deraza pardasini tushirib, eshik zulfinini mahkam bekitganicha chizganini sezdim. Tunlari mijja qoqmagan, qoqqanida ham dahshatli tushlar ko‘rib chiqqan.

– Tengsizlik, zulm-u janjal – hammasi yerning ustida, – dedi u salmoqlab. – Chin adolat va osoyish yerning ostida...

– Esa, nima qildik?

U bir kartinasiga, bir menga qaradi:

– Ajalga sabr bersa, biror muzeyga topshirarman. Olishsa, albatta. Olishmasa, sizga qoldiraman. O‘zingiz bir yo‘lini qilarsiz...

Shu-shu, Siddiq aka o‘nglanmadi. Juvonmarg ketgan ikki akasi, opasi va onasining yonidan osoyish topdi.



MUALLIF HAQIDA:

Qulman OCHIL – 1957-yili Qashqadaryo viloyatining Ko‘kdala tumanida tug‘ilgan. Toshkent davlat universitetining (hozirgi O‘zMU) jurnalistika fakultetida tahsil olgan. “Jaydari falsafa”, “Soy sohili”, “Barakali yigit”, “Omonat va matonat”, “Gardan va gardun” kabi kitoblari nashr qilingan.

2024-yil 31-may
№ 23(23)

TARIX VA TAQDIR

FAYZULLA SULTONOV – “KATTA TERROR” QURBONI

Akademik yozuvchi Komil Yashin o‘zining 1989-yili nashr etilgan “Yodnoma” xotira kitobida shunday yozgan: “Mirkomilboyga qarashli keng-ko‘lam hovlida dehqon yoshlarga atalgan maktab ochildi. Ko‘p o‘tmay meni o‘sha maktabda dars berishga taklif etishdi. Yo‘q demadim. Bu maktabda taniqli olim va dramaturg Izzat Sultonning akasi Fayzulla Sultonov ham ishlardi. U kishi bilan juda inoqlashib ketdik. O‘zi ham juda bilimdon, yaxshi va ajoyib inson edi.



Komil Yashin (1909–1997)

Fayzulla Sultonov Bokuda o‘qib kelgan, ko‘p narsadan xabardor va yetuk odam bo‘lganidan menga ancha yordam berdi. Unda pedagogik tajriba katta, o‘zi shahardagi texnikumda ham o‘qituvchilik qilganidan ziyolilar orasida yaxshigina obro‘ orttirgan edi. Menga bergan foydali maslahatlari pedagogik faoliyatimda juda asqotdi”.

Taniqli olim, marhum adib Sherali Turdiyev birinchi bor o‘zining “Fayzulla Sultonov qismati” nomli maqolasida (“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2000-yil 25-avgust soni) 32 yoshida qatag‘on qurboni bo‘lgan Fayzulla Sultonovning hayoti va faoliyatini qisqacha bo‘lsa-da, qimmatli manba va materiallar asosida yoritishga erishgan edi. Shundan beri oradan 24 yil o‘tdi. Biz yaqinda O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi tizimida faoliyat ko‘rsatib, qatag‘on qilingan prokuratura xodimlarining fojiali hayoti va taqdiri haqida “Tarixiy xotira beqiyos” kitobini nashrdan chiqarish jarayonida arxiv hujjatlarini chuqur o‘rganish asnosida ko‘pdan-ko‘p noyob hujjat va materiallarni jamlagan edik. Ular orasidan 1937-yil 13-noyabrda 10 yil muddatga hukm etilgan Fayzulla Sultonovning hozirgacha e’lon qilinmagan fojiali o‘limiga doir noyob hujjat topildi. Biz uni o‘zbek tiliga o‘girib, siz, aziz mushtariylarga taqdim etishni lozim bildik.

“O‘zbekiston SSR Oliy Sovet Prezidiumi raisi o‘rtoq Oxunboboyevga
Sultonov Fayzullodan



SURATDA: *Fayzulla Sultonov rafiqasi Zumrad Mirzaboyeva bilan. 30-yillar.*

ARIZA

Men 1905-yili Qirg‘iziston SSR O‘sh shahrida tug‘ilganman. Otam – tikuvchi va bundan tashqari 5 tanob yeri bo‘lib, yer bobom tomonidan onamga berilgan. Otamning otasi – bobom O‘sh shahridagi shahar boshqarmasi kanselyariyasida mirzalik qilgan (shu bois uning nomi Sulton Mirzo deb atalgan). Bobom 1917-yili, otam esa 1919-yilda vafot etgan. Otam hayotligida men onam tomonidan cho‘ponlikka berilganman, keyinchalik temirchiga shogird bo‘lganman. Shundan keyin meni sovet hokimiyati o‘z tarbiyasiga olgan: bolalar uyi xodimlari ko‘chadan olishgan va internatga joylashtirgan. Bolalar uyida 1922-yil iyuligacha tarbiyalandim. Bu yerda men boshlang‘ich ma’lumotni oldim. 1922-yili Andijon shahar xalq maorifi bo‘limi meni Bokuga o‘qishga yubordi, u yerda o‘rta ma’lumotga ega bo‘ldim. 1926-yil Andijonga qaytib keldim va shahar maorif bo‘limi mudiri va o‘qituvchilik qildim. 1929-yili SAGUga (Toshkent) o‘qishga kirdim, bu yerda 1931-yilgacha o‘qidim, uni tugatmasdan oilaviy ahvolim tufayli Andijonga qaytib keldim. Andijonda qishloq xo‘jaligi texnikumida 1937-yil sentyabr oyigacha (ya’ni qamoqqa olinishimga qadar) dars berdim.

Mening ishim to‘g‘risidagi barcha materiallar (taqrizlar, tavsifnomalar) shaxsiy ishimda bor (ularning barchasini NKVD vakili tintuv qilish va qamoqqa olishda olib qo‘ygan).

Qisqacha tarjimayi holim shundan iborat. Bu barcha ma’lumotlarni meni bilgan Andijon kommunistlari, men tug‘ilgan qishloq soveti, O‘sh shahridagi shahar va rayon soveti tasdiqlaydi.

Ammo qanday qilib turmaga tushib qoldim?

Men pastkash xalq dushmanlarining va ularning bo‘htonlari natijasida hibsga olindim.

1926-yili shahar maorif mudiri bo‘lib ishlayotganimda mafkuraviy frontda keskin kurash ketayotgan edi. Kelib tushgan asosli materiallarga ko‘ra, maktab o‘qituvchilarining ayrimlarini ishdan bo‘shatdim. Ular tabiiyki, mendan qasos olish va menga qarshi bo‘htonlar uyushtirishni boshlaganlar. 1929-yili Andijon o‘qituvchilar konferensiyasida ular shunday deb chiqishdi: “Sultonov bizning aksilinqilobiy tashkilotimizga xayrixohlik bildirdi. U bizning tashkilotimizga shuning uchun a’zo bo‘lmagan ediki, biz uni yoshligi uchun a’zo qilmagan edik”. Men isbot talab qildim. Ular aytdiki, go‘yo men 1922-yili ularning tashkilotidan moddiy yordam so‘ragan ekanman. Tergov organlari oldiga zudlik bilan bunday arizani tekshirib chiqish masalasini qo‘ydim. Natijada hech qanday isbot bo‘lmadi.

Ammo dushmanlar boshqa usulni o‘ylab topdilar: ularning da’vosicha, men go‘yoki mingboshi (volost boshqaruvchisi)ning o‘g‘li ekanman, ammo tekshiruvda bu ham yolg‘oni arxiv materiallari bo‘yicha aniq isbotlash mumkin. Men tekshirishni talab qilganman. Biron kishi tekshirmagan. Mening haqimda bo‘hton ko‘rsatmalar bergan kishilar bilan yuzlashtirishni talab qildim. Tergov mening taqdirimga befarq qaradi. Ayblov xulosasida otam go‘yoki “mingboshi” – bu lavozimni avval aniq tasdiqlash mumkin edi.

Mutlaqo yolg‘on bu ma’lumot biron-bir kishi tomonidan meni ayblashda isbotini topmadi. Go‘yoki men “yahudiylar – ahmoq xalq” va “sovet hokimiyati aholini non bilan ta’minlashni xohlamayapti va buning uddasidan chiqa olmaydi”, degan ekanman.

Bunday yolg‘on ko‘rsatmalarning birontasi tasdiqlanmadi, men to‘qqiz oy Andijon turmasida o‘tirdim, endilikda lagerlarda bo‘lib qoldim. Hozirda Ribinsk gidrouzelida ishlamoqdaman. Kunduzgi normani 120 dan to 196 foizgacha bajarmoqdaman. Yaqinda mashina avariyasi natijasida oyog‘imdan qattiq yaralandim, ammo hukumat g‘amxo‘rligi tufayli saqlanib qoldim. Yana mehnat frontiga qaytishga tayyorman.

Butun bor kuchim bilan ishlashga tayyorman, biroq men adolatsizlik bilan xalq dushmanlari safida bo‘lishni hech istamayman.

Mening ishimni qayta ko‘rib chiqishni qat’iylik bilan iltimos qilaman.

Sultonov Fayzulla (imzo)”.

Tegishli arxivlarda saqlanayotgan bu hujjat birinchi bor e’lon qilinmoqda. Ammo Fayzulla Sultonovning ushbu iltimos xatiga javob kelgani yoki kelmagani hozirgacha bizga ma’lum emas.

Xullas, u qamoq muddatini o‘tash uchun Yaroslav oblasti Ribinsk shahridagi mehnat tuzatuv lageriga etap qilingan. Bu qamoqxonada Fayzulla Sultonov “xalq dushmani” tamg‘asi ostida yurishga bardosh berolmay, 1939-yili qator yuqori huquq organlariga ariza bilan murojaat qilgan. Ishni qayta ko‘rib chiqib, adolat tiklanishini, qamoqdan ozod etilishini talab qilgan. Lekin hech qanday ijobiy natija bo‘lmagan. Uning ukasi akademik Izzat Sulton o‘z xotiralaridan birida shunday yozgan: **“Qamoq jazosini Fayzullo Ribinsk gidrouzelida o‘tkazgan. U gidrostansiyada navbatchilik qilayotgan chog‘ida o‘zini mashina lentasiga tashlab halok bo‘lgan. Bu haqda menga urush yillari qamoqdan qaytgan va Fayzulloning halokati guvohi bo‘lgan kishi aytgan edi. U adolatsizlikka chiday olmay o‘zini o‘ldirgan. Fayzullodan uch bola yetim qolgan edi. Eng katta o‘g‘li Umidni singlim Saodatxon va kuyovimiz Akmal Muzaffarov boqib olgan. Umid Andijonda musiqa maktabida o‘qidi, keyin Moskvada oliy ma’lumot olib, harbiy orkestr dirijyori bo‘ldi. Hozir nafaqada. Fayzulloning uch yashar qizi Ra’no mening tarbiyamda qoldi. Uni men Toshkentga olib kelib o‘qitdim, oliy ma’lumotli bo‘ldi. Rus maktablarida o‘zbek tilidan dars berdi. U ham hozir nafaqada.**



Akademik Izzat Sulton *(1910–2001)*

Rafiqasi Zumrad bir yashar bolasi bilan qoldi. Bola uch yoshda o‘ldi...”.

Ha, Fayzulla Sultonov istibdod tuzumi davrida, uning adolatsizliklariga qarshi kurashchilar safida bo‘ldi va shu adolatsizlikning begunoh qurboniga aylandi.

Bizningcha, bor-yo‘g‘i 32 yil umr ko‘rgan ma’rifatparvar, jadidlik harakatining faollaridan bo‘lgan vatanparvar Fayzulla Sultonovning xotirasini Andijonda abadiylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
Andijon davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori

YURT QAYG‘USI

“VATAN MENING ICHIMDA!”

Michigan universiteti professori Temur XO‘JAO‘G‘LI bilan suhbat



– Ildizsiz maysa bo‘lmas, o‘zansiz daryo. Sizning Markaziy Osiyoga, xususan, O‘zbekistonga intilishingiz ham daryoning o‘z o‘zaniga talpinishidek gap. Shunday emasmi?

– Bundan 34-yil avval – 1990-yili O‘zbekistonga ilk bor kelgandim. Men Vatanda emasman, Vatan mening ichimda, degan edim o‘shanda.

Nega? Buning ikki sababi bor. Birinchidan, men O‘zbekistonda emas, Vatandan uzoqda – Turkiyada tug‘ilgan bir o‘zbekman. Ikkinchidan, O‘zbekiston hali mustaqil bo‘lmagan, sho‘rolar tuzumi tomonidan boshqarilayotgan bir davr edi. Biroq o‘sha tuzumning oxirgi yillari bo‘lgani uchun ziyolilar-u oddiy xalq orasida mustaqillik va erkinlik g‘oyalari keng quloch yozayotgan edi. Odil Yoqubov, Shukrullo, Erkin Vohidov, Jamol Kamol, Rauf Parfi kabi o‘zbek yozuvchi-shoirlarining hayajonli so‘zlarida mustaqillik, erkinlik cho‘g‘ining alangalanayotganini ko‘rganman.

Dadam Usmon Xo‘ja 1878-yili O‘shda tug‘ilgan. Umrining qirq besh yili Buxoroda o‘tgan. U kishi Turkistondagi jadidlik harakatining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan. Buxoro jumhuriyati prezidenti vazifasida ishlaganlar. Usmon Xo‘ja 1921-yil dekabr oyida Dushanbe shahridagi bolsheviklar qo‘shinining harbiy garnizoniga hujum qiladi. 1922-yil so‘ngida Afg‘onistonga chiqib ketishga majbur bo‘ladi. Shu-shu vataniga qaytolmaydi. 1968-yili 90 yoshida Istanbulda vafot etdi. Usmon Xo‘janing otasi – buxorolik savdogar Po‘lat Xo‘ja. Uning otasi, ya’ni katta bobomizni Karomatullo Xo‘ja deyishgan. Fayzulla Xo‘ja dadamning jiyani bo‘ladi.

Onam Hakima To‘ra 1907-yilda Kobulda tug‘ilgan. Uning ota-onasi asli qo‘qonlik bo‘lib, 1880-yilda Kobulga kelib joylashgan. Ona tomondan bobomiz Sayidakramxon To‘ra Xudoyorxonning jiyani edi. U Afg‘onistonda Abdurrahmonxon o‘g‘li Habibulloxon va Omonullaxon davrlarida noiblik qilgan. Usmon Xo‘ja 1922-yilda Kobulga keladi. Saidakramxon To‘raning saroyida mehmon bo‘lib, keyinchalik uning qizi Hakima To‘raga uylanadi. Demak, men ota tomondan buxorolik, ona tomondan qo‘qonlikman. Lekin taqdir taqozosi bilan Istanbulda tug‘ildim. Taqdir shamoli garchi bizni Buxoro, Qo‘qon, Kobul va Istanbul tomonlarga uchirgan bo‘lsa-da, Vatan ildizlari har doim yuragimizda saqlanib qolgan. Shuning uchun doim: “Men Vatanda emasman, Vatan mening ichimda”, deya ta’kidlab kelaman.

– Vatan haqidagi ilk taassurotlaringiz-u keyinchalik bu taassurot ilmiy-ijodiy faoliyatingizda qanday aks etgani biz uchun qiziq.

– Vatan sevgisi avvalo uyda, oilada shakllanadi.

Kichkinaligimda onam aytgan ertak, hikoyalar-u allalar orqali bu sezim qalbimga, ong-u shuurimga chuqur singgan bo‘lsa, ajabmas. “Alpomish” dostonidan ilk parchalarni ham dastlab onamdan eshitganman. Dadam Usmon Xo‘ja esa Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, Furqat, Mashrab g‘azallaridan, jadid shoirlari Cho‘lpon, Fitrat, Elbek she’rlaridan o‘qib berardi. O‘qib-yozishni o‘rganganimdan keyin bu shoirlarning she’rlarini izlab topishga, o‘zim ham she’rlar va qisqa ertaklar yozishga harakat qildim.

O‘rta maktabni tamomlab, Istanbul universitetining turk tili va adabiyoti bo‘limiga o‘qishga kirdim. Qadimgi turkiy adabiy tilda yozilgan ko‘kturk, ko‘hna Xorazm va uyg‘ur, qoroxoniylar, temuriylar davri hamda zamonaviy Turkiya adabiyotini puxta o‘rgandim. U paytlar Turkistondagi o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman zamonaviy adabiyotlari o‘rgatilmas edi. Men bu adabiyotlarni mustaqil o‘rganishga intilar edim.

Shunday kunlarning birida taqdir meni amerikalik o‘zbekshunos olim, professor Edvard Olvordga duch qildi. 1968-yil sentyabr oyida undan dadamning nomiga maktub keldi. Afsuski, dadam 3 oy oldin vafot etgandi. Edvard xatida Buxoro va jadidlik bo‘yicha bir nechta savol so‘ragandi. Xatga javob berib, dadam yaqinda vafot etganini yozdim. Keyinchalik u bilan doimiy xat yozishib turdik. U mendan Istanbul universiteti kutubxonasidagi Abdurauf Fitratning bir asaridan nusxa ko‘chirib berishimni so‘radi. Iltimosini bajardim. O‘z navbatida u ham menga 1965-yilda nashr etilgan “Uzbek Literary Politics” (“O‘zbek adabiy siyosati”) nomli o‘z asarini yubordi. O‘zbek va boshqa turkiy xalqlar adabiyotiga qiziqishimni ilg‘ab, o‘zi dars berayotgan Kolumbiya universiteti magistraturasiga taklif qildi.

1972-yili AQSHga bordim. Taniqli olimlardan turkiy tillarning chog‘ishtirma grammatikasi, sovet tuzumi va ideologiyasi, zamonaviy rus hamda Markaziy Osiyo adabiyotlari haqida (o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman tillarida) ma’ruzalar tingladim.

Tahsil mobaynida Myunxenda joylashgan “Ozod Yevropa” va “Ozodlik” radiosining o‘zbekcha eshittirishlariga oyiga to‘rttadan maqola yozib jo‘natar edim. 1977-yili ushbu “Ozodlik” radiosining o‘zbek sho‘basiga ishga taklif qilishdi. Orada Istanbuldagi Marmara universitetining turkologiya bo‘limida ham qadimiy turk xalqlarning tili va adabiyotidan dars berdim. Nermin Ercan ismli talabam shoir Abdulhamid Cho‘lponning “Uyg‘onish” nomli she’riy to‘plami haqida magistrlik dissertatsiyasini yoqladi. Bu dissertatsiya Cho‘lpon to‘g‘risida yozilgan xalqaro miqyosdagi ilk ilmiy ish hisoblanadi. U paytlarda Cho‘lponning she’rlari O‘zbekistonda taqiqda edi.

Keyinchalik yana “Ozodlik”da ishladim. 1994-yili Istanbuldagi Koch, AQSHdagi Michigan universitetlarida dars berdim. Ayni damgacha Turkiston tarixi, adabiyoti, jadid davri va adabiyoti, sovet siyosati haqida 14 ta kitob hamda 200 dan ortiq maqolam o‘zbek, turk, ingliz, rus va qozoq tillarida nashr etildi.

– Ona Vatandan qarzdorlik hissi haqida nima deysiz?

– Shubhasiz, har bir inson ona Vatanidan o‘zini qarzdor deb biladi. Farzandlik burchini bajarish uchun odam faqat o‘z Vatanida yashashi shart emas. Yurtdan tashqarida istiqomat qilib ham Vatanga xizmat qilish mumkin. Men uchun O‘zbekiston, umuman, Turkiston ota hamda ona yurtimdir.

Markaziy Osiyo respublikalari sovet tuzumi ostida og‘ir kunlarni boshdan kechirdi. Turli tillarda yozgan maqolalarimda, konferensiyalardagi ma’ruzalarimda o‘sha davrdagi adolatsizlik va boshqa bosimlar haqida yozdim. Bu vazifani mendan oldin dadam bajargan. Dadam Usmon Xo‘ja umrining 45 yilini ona yurti Buxoro va Turkistonda, qolgan 45 yilini chet ellarda o‘tkazdi. U Istanbulda “Yangi Turkiston” nomli jurnal chiqargan edi.

– Siz Yevropa davlatlarida ko‘p bo‘lasiz. Yevropada “kindik qoni tomgan tuproq” tushunchasiga qanday qarashadi?

– Yevropada ham vatan muqaddasligiga jiddiy e’tibor qilishadi. Lekin men “kindik qoni tomgan tuproq” tushunchasi mohiyatni to‘liq aks ettiradi, deb o‘ylamayman. Chunki “kindik qoni tomgan tuproq”qa xiyonat qilgan razillar ko‘p o‘tgani tarixdan ma’lum. Demak, bu faqatgina kindik qoni emas, odamning vijdoni, Vatanga bo‘lgan sevgisi bilan bog‘liq tushuncha.

– Shu o‘rinda yana bir savol: ijodkor uchun muhabbat degan tuyg‘u qanday ahamiyatga ega?

– Ishq-muhabbat – eng zarur tuyg‘u. Muhabbatsiz qalb o‘likdir. Sevgi insonga zavq, orzu va umid beradi. Sevgi yo‘qolsa ular ham yo‘qoladi. Chunki tabiatning negizida muhabbat bor. Men uchun shu uchta narsa judayam muhim: hayot, muhabbat va she’r…

Butun dunyo mening bo‘lsa
g‘amim bitmas nedandir bu,
Azaldan g‘ussa loyi-la
yosalgan bir badandir bu.

Sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy o‘rtasidagi shu birgina baytlik munozaradan inson quruq badan emas, badandagi tuyg‘ular bilan omuxtalikda yaralganini anglash mumkin.

Jadidlar qismati juda ham murakkab. Qizig‘i shundaki, Sovet davrida qatag‘on qilinib, yomonotliq tamg‘asi bosilgan millat oydinlari mustaqillikka erishilgandan so‘ng ham to‘laqonli yorug‘lik ko‘rmadi. Aksincha, ular yana “qora ro‘yxat”ga tushib, merosi va tarixiga taqiq qulflari urildi.

Shukurki, Tangri yorlaqab, bugun adolat qaror topganiga guvoh bo‘lib turibmiz. O‘tgan yili Toshkentda o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy konferensiyada qatnashar ekanman, dilimda shukrona tuyg‘ulari jo‘sh urib, ko‘zim quvonch yoshlariga to‘ldi.

Suhbatimiz yakunida O‘zbekiston xalqiga va oliyhimmat Davlatboshimizga minnatdorlik bildirmoqchiman. Juvonmarg bobolarning shodumon ruhlari qo‘llasin. Otam Usmonxo‘ja Po‘lat-xo‘jayevning arvohi ham ana shunday umidvor edi, deb o‘ylayman. Mana, uning qirq yildan ortiq hayot kechirgan Buxorodagi xonadoni davlat tasarrufiga o‘tkazilib, bu yerda dunyodagi birinchi jadidlar muzeyi tashkil qilinayotgan menda Vatanimga bo‘lgan faxr tuyg‘usini yanada kuchaytirdi. Otamning xotirasiga bo‘lgan bunday hurmatni hech nima bilan tenglashtirolmayman. Muzeyning yaratilishi nafaqat bizning oilamiz, uchun balki butun o‘zbek xalqi uchun ham buyuk tarixiy voqea bo‘ldi. Men iftixor bilan ko‘ksimni kerib baralla ayta olamanki, ona vatanim O‘zbekistonning baxtli farzandiman!

– Mazmunli suhbat uchun tashakkur.

Sanobar MEHMON
suhbatlashdi.

JADID MATBUOTI

Umrning mazmunli fursati (sobiq sovet davrining so‘nggi yillaridan hozirga qadar) Alisher Navoiy nomidagi kutubxonaning “Nodir qo‘lyozmalar” bo‘limida, arxivlarda o‘tdi. Manbalar shu qadar mo‘lki, o‘rganilishi, tahlil qilinishi zarurki, unga bir bandaning umri yetmaydi... Har gal gazetalarni varaqlaganda “Sadoyi Farg‘ona” nashri taxlami, klishesi, betakror dizayni, sahifalardagi harflar, maqolalar, bitiklar mag‘zidagi g‘oyalar, ularni qalb qo‘ri bilan yozgan mualliflarning nomlari... qisqasi, qadrdonimizni uchratib qolgandek, yo‘q-yo‘q, undan ham aziz insonimiz bilan ko‘rishgandek bo‘laveramiz.



GAZETA MILLATNING TARJIMONIDIR

Gazetaning dastlabki sonidagi bitiklardan iqtibos:

“G‘azeta har millatning tarjimonidurki, bilmag‘on narsalarini anga bildirur va ham ul millatning muddaosini boshqalarga bildirur” (Ashurali Zohiriy. So‘z boshi // “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi, 1914-yil 3-aprel).

Bolsheviklar hokimiyatni egallagach, “Sadoyi Farg‘ona”ni tanqid qilgan bo‘lsalar-da, *“bu g‘azeta orqasida bir necha yangi qalamlar va tubjoy xalqdan murattiblar (sahifalovchilar) yetishib qoldikim, muni tanisoq, haqiqatni tanig‘on bo‘lurmiz”,* deya tan oladilar (Bu haqda qarang: Gazetchi. Farg‘onada tubjoy xalq matbuoti // “Farg‘ona” gazetasi, 1924-yil 5-may).

“Gazetchi” taxallusidagi muallifning fikridagi yangi qalamlardan Hamza va Cho‘lponlar bilan birga Ashurali Zohiriyni alohida ta’kidlash joizdir. Negaki, u Qo‘qonda chiqqan “El bayrog‘i” gazetasiga ham aloqadordir. Bu nashr haqida gapirishdan avval “Sadoyi Farg‘ona”ning to‘xtatilishi xususida fikr.

Abdulla Avloniy yozadi: *“Sadoyi Farg‘ona” Xo‘qand shahrida haftada uch marotaba chiqadurg‘on musulmoncha g‘azetadur. Bu g‘azeta 1914-yili Xo‘qanda Obidjon Mahmudov muharrirligida chiqdi. U har jihatdan “Sadoyi Turkiston”dek bo‘la olmadi. Qalam ahllarini o‘ziga jalb qila olmasdan bora-bora to‘xtab qoldi”.*

Mazkur maqolaning ham bolsheviklar siyosati ta’sirida yozilganini e’tiborga olsak, vaziyatni biroz o‘zgacha izohlash mumkin. Holbuki, “Sadoyi Farg‘ona” gazetasining kutubxonada saqlanayotgan taxlamidagi oxirgi, ya’ni 1915-yil 6-iyun (123) sonida muharrir nomidan pastroqda “Дозволено военной сензурой” degan yozuv paydo bo‘lgani, shuningdek, ikkinchi sahifadagi bir yarim ustunning bo‘sh chiqqanligi tahririyat harbiy senzura orqali siquvga olinganini anglatadi. Davr matbuotida senzorlar olib tashlagan maqolaning joyini bo‘sh chiqarish ularga nisbatan norozilik hisoblangani tarixiy manbalarda ko‘p bora tilga olingan. Demak, material olib tashlangan, tahririyat xodimlari e’tiroz tariqasida sahifani bo‘sh chiqarishgan, bu esa mustamlakachi senzorlarning qahrini keltirgan va gazetaning navbatdagi soni hech bir e’lonsiz chiqmay qolgan.

Oradan ikki yil o‘tib vaziyat tug‘ilishi bilanoq, aniqrog‘i 1917-yil Rossiyadagi fevral voqealari sabab “Sadoyi Farg‘ona”ning muassisi Obidjon Mahmudov o‘z jamoasi bilan nashr g‘oyalari targ‘ibotini yangi nom bilan davom ettiradi. “Tirik so‘z” deb nomlangan mazkur gazeta maqsadi bitilgan maqolada shunday satrlar borki, undan nafaqat jamoa g‘oyasini, balki “Sadoyi Farg‘ona” gazetasining yopilishi sabablarini bilib olish mumkin: *“...faqir 1914 nchi yildan to 1915-yilg‘acha “Sadoyi Farg‘ona” nom g‘azet birlan millatg‘a xizmat qilg‘on edim, ba’zi muomalot, olam necha xil mone’liklar sabab bo‘lub to‘xtab qolg‘on edi... Xalqni uyg‘otmoq uchun munodi qilmoqni (fikr bermoq ma’nosida – tahr.) o‘zumg‘a lozim bildim, ahvoli zamonag‘a qarab ba’zi puxta joylarda eshitkan va bilgon so‘zlarni g‘azet orqalik bildurub turmoqni zarur fahmlab, ya’ni “Tirik so‘z” g‘azetasini chiqarmoqg‘a majbur bo‘ldum. Muddao g‘azet chiqormoqdan foyda qilish yoki boshqa muddao emas, balki faqirni muddaosi mutafriqa fikrlik (tarqoq, turli qarashdagi – tahr.) millatlarni fikrlarini jam’ qilish, millat oralaridagi nafsoniyatlarni yo‘q qilish, ishda, fikrda, maslahatda katta-kichiklarni bir-birlarig‘a yaqinlashturush. G‘azeta maslaki birlik va ittifoqlik, din-u dunyoviy ishda taraqqiy qilishni asbobidur...”*

“Tirik so‘z”ning necha son chiqqani, qachon va qay tarzda to‘xtagani haqida ma’lumot topa olmadik. Lekin uning birinchi soni 1917-yilning 2-aprelida chiqqani va u “haftada uch marta chiqadurgon adabiy, iqtisodiy, taraqqiy” gazeta ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumotni Alisher Navoiy nomidagi kutubxonaning “Nodir qo‘lyozmalar” bo‘limida qolgan yagona nusxasidan bilib oldik. 1917-yil juda murakkab davr bo‘lgani, chor siyosatidan voz kechilgan paytda kutubxonachilik ishlari ham parokanda bo‘lgan. Shu bois bu davrning gazetalari to‘liq saqlanmagan. Ushbu nashr bilan bir vaqtda Toshkentda chiqqan “Turon” gazetasining besh soni saqlangan, shuningdek, oxirgisida oltinchi son uchun materiallar tayyorligi aytilgan. Ustoz Boybo‘ta Do‘stqorayevning “O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi” kitobida “Turon” “ayrim tadqiqotchilarning yozishicha, yigirma son qadar chiqqan”ligi to‘g‘risida ma’lumot bor. Shu bois “Tirik so‘z”ning ham kamida 20 ta soni dunyo yuzini ko‘rgan degan taxminni ilgari suramiz.

Tadqiqot natijalari Farg‘onada matbuot ishi, Obidjon Mahmudov to‘plagan jamoaning gazeta chiqarishni to‘xtatmaganini ko‘rsatdi. Bu borada yana Abdulla Avloniyga murojaat qilamiz.

“El bayrog‘i” gazetasi. U 1917-yili Qo‘qon muxtoriyati vaqtida chiqib, shiori “Yashasin Muxtoriyat!” edi. Bo‘lat Soliyev va Ashurali Zohiriylar muharrirlik qilishgan. Qo‘qon muxtoriyati tor-mor qilingach, gazeta ham chiqishdan to‘xtadi”.

Bu fikrda ham biroz xatolik mavjud. “El bayrog‘i” gazetasi 1917-yil 8-sentyabr (1-son) dan chiqa boshlagan. Shunday ekan, Turkiston muxtoriyati e’lon qilinishiga hali vaqt bor. Nashr shiori dastlab “Yashasun qo‘shma xalq jumhuriyati!” bo‘lgan va Turkiston muxtoriyati e’lon qilingach esa “Yashasun Turkiston muxtoriyati” tariqasida o‘zgargan.

“El bayrog‘i” gazetasining 18(1918-yil 26-yanvar)-soni Alisher Navoiy nomidagi kutubxonada taxlamning so‘nggi soni bo‘lsa-da, uning davom etganligini “Idoradan javob”dan bilib olish mumkin: *“Iskubilifda, markaziy sho‘ro raisi Mirodil afandig‘a: keladurg‘on numrada bosilur”.*

Qolaversa, shu yilning 19-fevrali (Turkiston muxtoriyatining qonga botirilishi)gacha yana uch haftadan ziyod vaqt bor. Gazetaning haftada ikki marta chiqishini nazarda tutsak, uning jami 24 ta son chiqqanini chamalash mumkin.

Xulosa qilib aytganda gazetaning muassis-u muharrirlari, nomi o‘zgaradi, lekin bu jamoalarda har doim bog‘lovchi mehvar vazifasini millat fidoyisi Ashurali Zohiriy bajarib turadi. Xalqlarga erkinlik berish, barchani o‘qitish, ozodlik g‘oyasiga sodiq qolgan bu jamoaning gazeta sahifalarida muhrlagan maqolalari fikrimizga dalildir.

Bolsheviklar hokimiyatga o‘rnashgach “El bayrog‘i”ni “Mehnat bayrog‘i”ga (“Hurriyat”ni “Kambag‘allar tovushi”ga) o‘zgartirishgan. “Mehnat bayrog‘i” mas’ul muharriri Ibrohim Rashid ekanligi, shiori bolshevikcha “Birlashing, butun dunyo mehnatkashlari!” bo‘lishidan qat’iy nazar bunda Ashurali Zohiriyning ishtiroki ham aniqlandi (Ashurali Zohiriy. Yana imlo atrofida // “Mehnat bayrog‘i” gazetasi, 1921-yil 10-mart). Maqolada eski muammo ko‘tarilgan bo‘lib, muallif: “To‘g‘risini aytganda imlomiz hali ham bir yo‘lg‘a qo‘yilmag‘on”ligidan shikoyat qiladi va o‘z taklif hamda mulohazalarini bildiradi.

1917-yil fevral voqealaridan keyin chop etilgan “Tirik so‘z” (1917-yil 2-aprel), “El bayrog‘i” (1917-yil 8-sentyabr)dan “Mehnat bayrog‘i”gacha bo‘lgan davrda chop etilgan gazetalar xronologiyasida ketma-ketlik mavjud, ya’ni biri yopilsa, ikkinchisi ochilgan.

“Mehnat bayrog‘i” 1921-yil may oyidan “Farg‘ona” deya o‘zgartiriladi. Biz uning 1921-yilning 29-may sonini o‘rganganimizda tahririyat manzili “Mehnat bayrog‘i” gazetasi manzili bo‘lganligi ma’lum bo‘ldi: “Ho‘qandda 25-oktyabr ko‘chasi xonai matbuot”. Shiori biroz o‘zgargan: *“Birlashing, butun dunyo mehnatkashlari! Yashasun Sharqda obodliq!”* 1924-yil 29-noyabr (227) soniga kelib Sharqning obodligi masalasi kun tartibidan tushirilgan ko‘rinadi: “Birlashingiz butun dunyo yo‘qsullari”.

“Yangi Farg‘ona” gazetasi (1926-yil 1-yanvar (489)dagi 1-sonidagi sanoqqa ko‘ra haqiqatan ham u “Farg‘ona”ning davomi. Manzil ham o‘sha: “Ho‘qandda 25-oktyabr ko‘chasi, xonai matbuot”.

Tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, 1926-yildan sovet jurnalistikasining ikkinchi bosqichi boshlanib, 1938-yilda senzuraning rasman o‘rnatilishi bilan tugaydi. Bunda bolsheviklar partiyasining OAVga ta’siri kuchayib borishi kuzatiladi. Mavjud hokimiyat matbuot va radio rahbarlariga “mehnatkashlarni kommunistik ruhda tarbiyalash, partiya an’analarini xalqqa singdirish” vazifasini yuklaydilar. Biz “Farg‘ona”ning “Yangi Farg‘ona”ga aylangani sababini shunda ko‘ramiz.

Eng asosiysi, bu nashrlarning boshlanish nuqtasi “El bayrog‘i” emas, “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi ekanligidadir. Buni yuqorida nomlari zikr etilgan shaxslar, jamoa, birlashtiruvchi va bog‘lovchi g‘oya bilan asoslashga harakat qildik.

Xulosa shulki, jadid bobolarimiz mehnati, ularning o‘z g‘oyalari uchun qurbon bo‘lishgani har qanday soxtalashtirilgan tarixni tiklash uchun katta asosdir.

Halim SAIDOV,
O‘zJOKU professori,
filologiya fanlari
doktori

TABDIL

BOLALAR ADABIYOTI TO‘G‘RISIDA...

Boshlanishi 1-sahifada.

Bolalar yaratilishdan boshlab bunday narsalardan zavq olib, bularni juda havas va maroq bilan tinglaydir; tinglagan sari eslari ham fikrlarida bir yangilik ko‘rilar. Mana bu esa boshlang‘ich fikr va uning yuksalishi uchun bir choradir...

Hali fikrlari, sajiyalari (xarakter) tuzilmagan, qarorlashmag‘on bolalarg‘a turli g‘ayritabiiy ko‘rinishlarni ko‘rsatmak, ulardan zavq olishg‘a yo‘l qo‘ymak shu voqiag‘a qatnashuvchi tiplarga taqlid etdirish demakdir. Buning so‘ngra vujudga keltiratirgan natijasi juda qo‘rqinchlidir.

So‘ngra oling‘on mavzudag‘i tub o‘y, tabiiy bolalarning fikrlari, muhokamalari hal qila oladirg‘on bir yo‘sinda bo‘lsin. Chunki 7-8 yoshdag‘i bolalarg‘a Fitrat, Cho‘lpon asarlarini bera olmag‘onimiz kabi, buni tahlil etib tub o‘yning nimadan iborat ekanini ham anglata olmaymiz. Agar bunday yuksak asarlarning tub o‘yig‘a qul etsaq, bolalarning tushunmagan boshlarig‘a kira olmog‘on so‘zlar bilan zehnlarini charchatib, ularni o‘qushdan bezdirgan bo‘lamiz...

Endi oling‘on mavzuni kengaytirish, tub o‘yni anglatish uchun qurol bo‘lg‘on til va uslub tomonig‘a kelsak, bu yerda ham diqqat qilinadirg‘on nuqtalar bor.

Birinchidan, bolalarg‘a yoziladirg‘on bir asarning bolalar tilida bo‘lishi mutlaqo kerak. Faqat bolalarg‘a asar yozuvchilar bu shartni ko‘b vaqt unuturlar. Bolalarg‘a deb yozg‘on asarlarining ichida anglashilmaydirg‘on kinoya, chuqur fikrlar qistirilib qo‘yiladir. Yuqorida buning yaramaslig‘ini so‘ylab o‘tdik.



Bolalarg‘a adabiyot berishdan maqsad ularni quruq mutolaa ham o‘qushg‘a o‘rgatish emas, balki u asarning ichida bo‘lg‘on tub o‘yni anglata olish hamdir: tub o‘yni anglashilishida tilning tushunarliq bo‘lishining katta ta’siri borkim, bu ham bo‘lsa, yozilg‘on asarning mutlaqo bolalar tilida bo‘lishini talab etadir.

Bunday bo‘lg‘onda yozg‘uvchilarning bolalar bilan gaplasha olishg‘a iqtidori sezgilari bilan tanish bo‘lishlari kerak. Tabiiy bu iqtidor, bu tanishmaliq bolalar bilan yaqinda ko‘rishish; ularning ruhini tekshirish bilan bo‘ladir. Mana shunday holda bolalarg‘a yozg‘on asarlarda muvaffaqiyatni ko‘rish mumkin.

Bundan keyin, bolalarg‘a tantanali uslub bilan yozilg‘on asarlarni berish yaramaydir. Bolalarg‘a beriladirgan asarlarning sodda, ixcham jumlalar va so‘zlar bilan yozilishi shart, chunki ularning ruhlariga sodda, ixcham narsalar yoqadir. Va tilining ochilishida, ochiq-oydin so‘zga o‘rgatishda muhim foydasi bor.

Asarning o‘zi ham istar sochma, istar tizma uslubda yozilg‘on bo‘lsa bo‘lsin, hajmi kichik, ixcham bo‘lishi shart, chunki uzun so‘zlar bolalarning o‘ynoq ruhlarini tezdan charchatadir.

Bundan boshqa, tizma asarlar to‘g‘risida bir qadar to‘xtab o‘tish kerak. Tizma asarlarning hofiza ustida katta ta’siri bor. Sochma asarlarni esda saqlash qiyin bo‘lg‘oni holda, tizmalarning eng uzunlarini ham tezda yod qilish, esga olish mumkin. Chunki she’rlarning bor qiymati ham hofizani tarbiya qilishidadir.

Faqat bolalarg‘a yozilg‘on she’rlarning yuqorida so‘ylanganidek, og‘ir so‘zlar, og‘ir vazn bilan yozilg‘on qismi bu qiymatga ega bo‘la olmaydir. So‘zda qanday ixchamlikka rioya qilinsa, vaznda ham shunday ixchamlik bo‘lsin... She’rda ohang masalasi ham muhimdir. She’r qancha ohangli bo‘lsa, shuncha o‘qulishi onson va zeriktirmaydirgan bo‘ladir.

Bundan keyin kitobcha shaklida bo‘ladirg‘on asarlarning texnikasi ham muhimdir. Kitobning boshqa jihatiga qanday ahamiyat bilan qaralsa, texnikasiga ham shunday diqqat bilan qarash kerak.

Kitob qancha nafis bo‘lsa, uning ta’siri o‘shal darajada jonli bo‘ladir. To‘g‘risi, kitob nafis qog‘ozda, yirik harflar bilan va asarning mavzuig‘a oid jonli rasmlar bilan bezatilmagi kerak. Rasmlarning bolalar maroq va havasini uyg‘otishdag‘i ro‘li ma’lum. Bundan boshqa rasmning, tub o‘yining ochilishidag‘i ko‘magi juda kattadir. Bu xususda rus o‘rtoqlarimiz bizga o‘rnak bo‘la oladirlar.

Xulosa: kitob, kerak ichki tuzilishicha, kerak tashqi tuzilishicha yuqorida so‘ylangan bir-iki qoidag‘a muvofiq tuzilsin. Bu qoidalarning tashqarisidag‘i kitoblarning na pedagogik, didaktika, na-da ruhiyat nuqtalaridan bir qiymatga ega bo‘la olmaslig‘i aniqdir. Bu xayolda kitoblarni bolalar qo‘lig‘a berishdan ham tortinish lozim.

Bu kungacha tiriltirilmagi kerak bo‘lg‘on bolalar adabiyoti haqida shu fikrlarni aytish bilan, bolalar bilan maroqlang‘on, ularni suygan shoir va adiblarimizning e’tiborlarini shu nuqtalarg‘a jalb qilamiz.

ALIM

“Maorif va o‘qituvchi” jurnalining 1926-yil 2-sonidan olindi.

Sohiba KARIMOVA
nashrga tayyorladi.

XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Safarov Umid – 1904-yili tug‘ilgan. Sobiq quloq. Qamoqqa olingunga qadar Rayonlararosoyuz maktabida instruktorlik qilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi. Aholi orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, O‘zSSR JK 61-moddasi 1-bandi bilan 10 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 15-noyabrdan hisoblangan.

Aminov Zakariyo – 1892-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi. 1930-yili zararkunandaligi uchun sudlangan. 1934-yili O‘zSSR JK 140-moddasi 1-bandi bilan yana sudlangan. 1937-yili aholi orasida millatchilik, aksilinqilobchilik targ‘iboti olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblanib, O‘zSSR JK 66-moddasi 1-bandi bilan 10 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan.

QATAG‘ON QURBONLARI

Ogalikov Yunusjon – 1884-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotining sobiq a’zosi. 1926-yili 7 yil qamoq jazosiga hukm qilingan. Hibsga olingan vaqtda do‘kon mudiri bo‘lib ishlagan. Sovet hokimiyati sha’niga turli mish-mish tarqatib, partiya va hukumat tadbirlariga qarshi turganlikda ayblanib, otuvga hukm qilingan.

Erkin Nosir – 1900-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. 1925-1929-yillari “Botir gapchilar” aksilinqilobiy tashkilotida faol ishtirok etgan. 1930-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun 10 yilga ozodlikdan mahrum etilgan. Qamalgan paytda kolxozchi bo‘lgan. Partiya va hukumatga bo‘hton va tuhmat qilganlikda ayblanib, O‘zSSR JK 67-moddasi 1-bandi bilan 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 21-avgustdan hisoblangan.

Juvonmardiyev Abdullajon – 1892-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi. Qamalgan paytda “Himoyachilar” kollegiyasi a’zosi bo‘lgan. “Botir gapchilar” aksilinqilobiy tashkiloti bilan aloqadorlikda, millatchilik ruhida fikrlar bildirganlikda hamda Sovet hokimiyatiga qarshi turganlikda ayblangan. O‘zSSR JK 66-moddasi 1-bandi bilan 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 25-avgustdan hisoblangan.

Og‘aliqov Ne’matjon – 1877-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti sobiq a’zosi. Qamalgan paytda “Intrud” artelida ishchi bo‘lgan. Aholi orasida aksilinqilobiy bo‘hton tarqatganlikda, partiya siyosatidan norozilikda ayblangan. O‘zSSR JKning 66-moddasi 1-bandi bilan 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 15-avgustdan hisoblangan.

Hakimov Obidmaxsum – 1894-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. 1923-yili “Ittihodi taraqqiy” aksilinqilobiy tashkilotdagi faoliyati uchun qamoqqa olingan. 1930-yili “Botir gapchilar” aksilinqilobiy tashkilotidagi faoliyati uchun yana 3 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan. 1934-yili kolxozda qo‘poruvchilik ishlarini olib borganlikda ayblanib, 5 yil qamoq jazosiga hukm qilingan. Qator yillar davomida turli aksilinqilobiy, millatchilik tashkilotlarida faol ishtirok etib, o‘z faoliyatini to‘xtatmagan. Aksilinqilobiy tashkilotlar rahbarlari bilan yaqin aloqada bo‘lib, Sovet hokimiyatiga qarshi dushmanlik kayfiyatida mish-mishlar tarqatganlikda ayblangan va otuvga hukm etilgan.

Alimatov Begmat Boybacha – 1869-yili Qo‘qon rayoni Naymancha qishlog‘ida tug‘ilgan. “Milliy ittihod”, “Sho‘royi Islom” aksilinqilobiy tashkilotlari a’zosi. Davlat majburiyatini bajarmagani uchun 1 yil ozodlikdan mahrum etilgan. So‘ng 3 yil surgun qilingan, u yerdan qochgan. U bosmachilar to‘dasining taniqli tashkilotchilari bilan birga batraklarning otilishida shaxsan ishtirok etganlikda, bosmachilar to‘dasi tugatilgandan keyin ham Sovet hokimiyatiga qarshi dushmanlik kayfiyatidan voz kechmaganlikda ayblangan. Mol-mulki musodara etilib, otuvga hukm qilingan.

Ahmadxo‘jayev Mahmudxo‘ja – 1888-yil Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi. Mavjud tuzumga qarshi kayfiyatda bo‘lgan. Hibsga olingan vaqtda kolxoz maktabida o‘qituvchilik qilgan. O‘quvchilar orasida aksilinqilobiy, millatchilik g‘oyalarini targ‘ib qilganlikda, Turkiyani maqtab, Sovet hokimiyati sha’niga tuhmatlar yog‘dirganlikda ayblangan. 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 1-sentyabrdan hisoblangan.

Isroilov Akbar – 1880-yili Qo‘qon rayonida tug‘ilgan. O‘zSSR hududidan tashqariga surgun qilingan. Surgundan qochgan. Ikkinchi marta 1932-yili surgun qilingan. Unga kolxozchilar orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borish, partiya va hukumat tadbirlarini diskridatsiya qilish aybi qo‘yilgan. O‘zSSR JK 66-moddasi bilan 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 17-noyabrdan hisoblangan.

Xolmatov Mahmud Qori – 1879-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod”, “Maqkamayi sha’riya” aksilinqilobiy tashkilotlari a’zosi. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. U aholi orasida eski davrni maqtab, aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, xalq dushmanlari bilan yaqindan aloqadorlikda, bosmachilik davrida shaxsan Xolmatov ishtirokida ishchilar vakillarini o‘ldirganlikda ayblangan. Mol-mulki musodara qilinib, otuvga hukm etilgan.

Nuriddinov Eshon Najmiddin – 1886-yili Baliqchi rayon Aglon qishlog‘ida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi, reemigrant. Qamoqqa olingan vaqtda ma’lum mashg‘uloti bo‘lmagan. 1933-yili quloq qilingan. O‘sha yili yana 3 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan. Aholi orasida eski tuzumni maqtab, Sovetlarga qarshi targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. O‘zSSR JK 66-moddasi 1-bandi bilan 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 13-noyabrdan hisoblangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,

Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

IJTIMOIY HIMOYA



BAXTLI BOLALIK HUQUQI

Bu dunyoda har bir bolaning baxtli yashashga haqi bor. Ammo hamma oilada ham mavjud shart-sharoit bunday tolega esh bo‘lavermaydi. Ajrimlar yoxud noqobil ota-onalarning o‘z maqomiga noloyiqligi ayrim hollarda baxtli bolalikka soya solishi mumkin. Shu bois bolalar ulg‘ayib, hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun davlat tomonidan muayyan g‘amxo‘rlik chora-tadbirlari belgilangan. Ammo ba’zan subyektiv omillar insoniylik mezonlariga zid kelib qolishi ham mumkin. Fuqarolik ishlari bo‘yicha Zangiota tumanlararo sudining sudyasi Dilbar Mavlonova bilan suhbatimiz shu mavzuda bo‘ldi.

– Ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez farzandiga aliment to‘lashdan bo‘yin tovlayotganlar haqidagi xabarlarga ko‘zimiz tushadi. Ularni jinoyatchi kabi ta’qib etish qanchalik to‘g‘ri?

– Qonunchilikka ko‘ra, ota-ona o‘z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart etib belgilangan. Oila kodeksining 73, 96-moddalariga binoan, ular o‘z farzandlari tarbiyasi va kamoloti uchun javobgar bo‘lib, bolalarning sog‘lig‘i, jismoniy, ruhiy, ma’naviy va axloqiy tarbiyasiga g‘amxo‘rlik qilishi, shuningdek, voyaga yetmagan bolalarini ta’minlashlari lozim.

O‘z navbatida voyaga yetmagan, shuningdek, voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalar ta’minoti uchun aliment ota-onalarning kelishuviga binoan ixtiyoriy tartibda, shuningdek, sud tartibida undirilishi mumkin.

O‘z majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qarori yoki buyrug‘iga asosan aliment undiriladi. Bunday majburiyatlar bajarilmagan hollarda jazo choralarining qo‘llanilishi esa bevosita qarzdorning mas’uliyatini oshiradi. Aliment to‘lash haqidagi sudning hal qiluv qarorini bajarishdan bo‘yin tovlagan shaxslar Oila kodeksining 79-moddasiga asosan ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. O‘zR MJtKning 47-moddasiga asosan, ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, shu jumladan, voyaga yetmagan bolalarning ma’muriy huquqbuzarlik sodir etishiga olib kelgani uchun, bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga asos bo‘ladi. Kodeksning 47^4-moddasiga muvofiq, moddiy yordamga muhtoj bo‘lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta’minlashdan bo‘yin tovlash, ya’ni ularni moddiy jihatdan ta’minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug‘iga binoan undirilishi lozim bo‘lgan mablag‘ni ikki oydan ortiq muddatda to‘lamaganlik uchun – o‘n besh sutka muddatga ma’muriy qamoqqa olish yoki bir yuz yigirma soatgacha haq to‘lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etish jazosi belgilangan. Ushbu Kodeksga muvofiq, ma’muriy jazolarning mazkur turlari qo‘llanilishi mumkin bo‘lmagan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida jarima ham solinadi.

– Mo‘may daromad topadigan otalarning ayrimlari o‘z kirimini kamaytirib ko‘rsatish orqali farzandiga arzimas miqdorda aliment to‘lashi haqida eshitganmiz. Bunday hollar ochiqlanmaydimi?

– Agar undiruvchida ushbu holatni tasdiqlovchi ishonchli ma’lumotlar bo‘lsa, bevosita bu haqida tegishli Majburiy ijro byurosi davlat ijrochisiga xabar berib, qarzdorning daromadlarini tekshirish to‘g‘risida iltimosnoma kiritishi lozim.

“Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonun talabidan kelib chiqib, davlat ijrochisi qarzdorlikni undirish mumkin bo‘lgan barcha daromad manbalari va mol-mulklarini aniqlash choralarini ko‘radi.

– Aliment olib voyaga yetgan bola kelajakda otasiga qarashga majburligi aytiladi. Bu o‘zaro sulhmi? Ushbu masala ham qonun nazoratiga olinadimi?

– Buni sulh deb baholash xato. Ota-ona o‘z bolalari oldida qanday majburiyatga ega bo‘lsa, voyaga yetgan va mehnatga layoqatli farzandlarning ham o‘z ota-onalari oldidagi burchlari, shu jumladan, ularga g‘amxo‘rlik qilish va moddiy ta’minlash majburiyati qonunchilikda mustahkamlab qo‘yilgan. Afsuski, so‘nggi vaqtlarda ota-onalarning o‘z farzandlaridan aliment undirish masalasida sudga murojaat qilishlar soni ko‘payib bormoqda. Bu birinchi navbatda, shu oiladagi muhitga, ota-ona va bolalar o‘rtasida shakllangan o‘zaro munosabatga bog‘liq.

– Deylik, otaning daromadi aliment to‘loviga yetmaydi yoki u hech qayerda ishlamaydi. Bunday hollarda masalaga qanday yechim topiladi?

– Qonunga binoan voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berish haqida ota-ona o‘rtasida kelishuv bo‘lmasa, ularning ta’minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagi ish haqi va yoki boshqa daromadidan undiriladi. Bunda har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 26,5 foizidan kam bo‘lmasligi kerak. Taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolini va boshqa e’tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda aliment to‘lovlar miqdori Qonunga muvofiq o‘zgartirilishi, kamaytirilishi yoki ko‘paytirilishi ham mumkin.

– O‘z otasini sudga berish, o‘z haqini sud orqali undirish bolaning ruhiyati, psixologiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning oldini olish borasida ham qanday choralar ko‘riladimi?

– Nafaqat sudga berish, balki bolaning o‘z otasidan alohida yashashining o‘zi bolaning ruhiyatiga salbiy ta’sir o‘tkazadi. Bu holat odatda otaning o‘z majburiyatlarini qanchalik anglashi va ado etishiga bog‘liq bo‘ladi. Hozirda ko‘plab huquqiy targ‘ibot-tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Xususan, majburiy ijro bo‘limi vakillari tomonidan ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘z majburiyatidan bo‘yin tovlayotgan qarzdorlar qidirib topilayotgani, ulardan qarzlarni undirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, ularga nisbatan qo‘llangan jazo choralari to‘g‘risida maqolalar, fikr-mulohazalar oshkora berib borilmoqda.

– Amerika Qo‘shma Shtatlarida agar oilada nizo kelib chiqsa, ona va farzandlar boshqa shtatga ko‘chirilib, birinchi navbatda ona ish bilan ta’minlanarkan. Ayting-chi, bizda ham aliment to‘lovidan tashqari, farzandlar moddiy ta’minotini yaxshilaydigan qandaydir ishlar amalga oshiriladimi? Balki shunday choralar ko‘rilsa, aliment kechiksa ham ona va bolalar moddiy tanglikka tushib qolishmasmidi?

– Prezidentning 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 87-sonli Farmonida aynan xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator vazifalar va ularni amalga oshirish mexanizmi belgilangan. Xususan, aliment to‘lovchining boshqa ijro hujjatlari bo‘yicha majburiyatlari mavjud bo‘lganda, qarzdordan undirilgan mablag‘ aliment to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlik to‘liq qoplangandan so‘ng qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va navbat bilan taqsimlanadi. Xuddi shunday, ijro harakatlari davomida qarzdorga solingan jarimalar va ijro harakatlarini amalga oshirish xarajatlari ham aliment to‘lovlaridan joriy qarzdorlik to‘liq qoplangandan so‘ng undiriladi.

Aliment to‘lash majburiyatini bajarishdan bo‘yin tovlab kelayotgan va qidiruv e’lon qilingan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni majburiy ijro organlarining rasmiy veb-saytlariga joylashtirish, shuningdek, davlat ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish amaliyoti joriy etildi. Unga ko‘ra, ushbu manbalarda qidiruvdagi shaxslar va ularning mol-mulki to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lgan fuqarolarga majburiy ijro va ichki ishlar organlariga xabar berish imkoniyati yaratilgan. Bu, albatta, aliment bo‘yicha qarzdorlik mavjud bo‘lganda qarzdorlik to‘liq bartaraf etilguniga qadar davom ettiriladi. Bundan tashqari, qarzdorning transport vositasini boshqarish huquqini vaqtincha cheklash, qarzdorga lisenziya va ruxsat berish xususiyatiga ega bo‘lgan davlat xizmatlarini vaqtincha ko‘rsatmaslik, aliment bo‘yicha qarzdorlik mavjudligini nikoh tuzish uchun monelik qiladigan holat sifatida belgilash choralari ko‘rilgan.

Yuqorida ta’kidlangan Farmonning 20-bandiga asosan Majburiy ijro byurosi huzurida yuridik shaxs tashkil etmagan holda “Aliment to‘lovlari” davlat maqsadli jamg‘armasi tashkil etilgan. Farmon ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining “Aliment to‘lovlari jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2022-yil 3-avgustdagi 427-sonli qarori ham qabul qilinib, aliment to‘lovlari jamg‘armasidan foydalanish tartibi belgilangan. Unga ko‘ra, sud qarori bilan aliment to‘lash majburiyati yuklatilgan shaxslardan belgilangan mablag‘larni uch oy ichida undirish imkoni bo‘lmagan hollarda “Aliment to‘lovlari” davlat maqsadli jamg‘armasi mablag‘lari aliment to‘lovlari bo‘yicha shakllangan qarzdorlikni bir yo‘la to‘lashga yo‘naltiriladi. Keyinchalik aliment to‘lash majburiyati yuklatilgan qarzdordan sud qarorisiz majburiy tartibda undirib olinadi.

– Ajrim sudi o‘tkazilayotganda bir oilaning buzilib ketishiga, go‘daklarning yetim bo‘lib qolishiga sababchi bo‘layotgan uchinchi tomonlar ham surishtiriladimi? Ularni hech bo‘lmaganda “moddiy” tomondan jazolash, kerak bo‘lsa, ulardan ham aliment undirish mumkinmi? Sizningcha, bu ajrimlar kamayishiga omil bo‘lmaydimi?

– Sudlar tomonidan nikohdan ajratish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rish jarayonida barcha sabablar o‘rganiladi. Lozim bo‘lsa, taraflarning ko‘rsatmalaridan kelib chiqib, uchinchi shaxslar jalb etilib, xulosalar olinadi. Nikohdan ajratish va aliment undirish to‘g‘risidagi talablar, alohida mustaqil talablar hisoblanadi. Oila kodeksining 122-moddasida voyaga yetmagan, shuningdek, voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj shaxslarga ta’minot berish majburiyati sud tomonidan ularning qarindoshlari: bobo, buvi, nevara, aka-uka, opa-singil, shuningdek, o‘gay ota va o‘gay ona, o‘gay o‘g‘il va o‘gay qiz, doimiy tarbiyada bo‘lgan shaxslar zimmasiga yuklatilishi mumkinligi qayd etilgan. Bunda, bolalarning ota-onasi aliment to‘lash imkoniyati yo‘qligi, biroq bobo (buvi) va boshqa qarindoshlarning esa moddiy imkoniyatlari yetarliligini aniqlash lozim.

Shoira ERMETOVA suhbatlashdi.

TARMOQLARDA NIMA GAP?

NEMISLAR QANDAY QILIB SANITAR TOZALIKKA O‘RGATILGAN?

Germaniyada, xususan, g‘arbiy Bavariyadagi tarixiy Shvabiya aholi hududlarida sanitariya tozalikka rioya etish “tug‘ma” emas, aksincha, majburiy ravishda qadriyat va an’anaga aylantirilgan.

Uzoq vaqt davomida nemislar chiqindi, kul, o‘limtiklar, suyak-sayoq va yuvindilarni devor osha ko‘chaga yoki jamoat joylariga tashlayvergan. Natijada antisanitariya sharoitlarida turli kasalliklar ko‘paygan, qishloq va shaharlarda epidemiya o‘choqlari vujudga kelgan.

XV asrda graf Vittemberg ushbu chiqindilar qo‘lansasidan kasal bo‘lib qoladi va u odamlar va chorva mollarining chiqindilarini qishloqdan chetroqqa yoki tungi vaqtda daryoga oqizish to‘g‘risida farmon qabul qiladi.



Albatta, farmon shartlarini nazorat qilish oson ish emasdi. Politsiyani har bir xonadonga yoxud fermerga biriktirish qimmat tadbir bo‘lib, huquq-tartibot idoralari xodimlari uchun korrupsiyani keltirib chiqaruvchi bosh-og‘rig‘i edi.

Shundan so‘ng graf yangi farmon chiqardi, natijada Shvabiya shaharlari to‘satdan toza bo‘lib qoldi. Farmonning mohiyati quyidagicha edi: agar qo‘shningiz bir necha hafta davomida chiqindisini tozalamagani, devordan ko‘chaga uloqtirgani yoxud belgilanmagan joyga tashlagani haqida xabar bermasangiz, unda nafaqat u, balki siz ham aybdor sanalasiz. Agar siz tegishli idoraga xabar bersangiz, unda siz qo‘shningiz mulkining bir qismiga egalik huquqini qo‘lga kiritasiz.

Natijada hamma qo‘ni-qo‘shni nazaridan hayiqib, o‘z mulkining daxlsizligini o‘ylab, har shanba kunlari hovlisi va shaxsiy hududini tozalab, chiqindilarni qat’iy belgilangan joyga sarishtalik bilan eltishga odatlandi.

Ushbu holatni bir tomondan, chaqimchilikka majburlash, shaxs erkinligini bo‘g‘ish deb talqin qilish mumkin. Boshqa tomondan esa shvabiyaliklar qisqa muddatda o‘z qishloq va shaharlarining sanitar holatini risoladagidek tartibga keltirib, butun nemis xalqiga namuna ko‘rsatdi. Natijada ma’lum vaqtdan so‘ng graf Vittembergning majburiy farmoni Germaniya milliy urf-odati va an’anasi tarkibiga ozodalik va sarishtalik fazilatini olib kirdi.

Islom XUSHVAQTOV sahifasidan olindi.

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Dilmurod Do‘stbekov

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Kirill yozuvidagi adadi – 6291
Lotin yozuvidagi adadi – 11962
Media kuzatuvchilar – 12633
Buyurtma: G – 540.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 22:30
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz